Har bir shaxsning landshaft go'zalligini his etish darajasini uning tabiat komponentlarini qanday anglashi va tushunishi belgilab beradi. Shuningdek, shaxs xususiyatlari uning qanday jamiyatda, ijtimoiy guruhda shakllanganligi ham tarkibiy va zaruriy jihatlardan hisoblanadi.

Landshaft estetikasi darajasini uchta asosiy ko'rsatkichlar belgilab beradi. Bular peyzajning turli-tumanligi, ekzotikasi (betakrorligi) va landshaftning o'ziga xosligidir. Ushbu xususiyatlar landshaftni rejalashtirish va loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rang-barang va go'zal peyzaj – bu faqatgina hashamat yoki zebu-ziynat emas, balki gullab-yashnayotgan maskanning muhim elementlaridan biridir. Landshaftning foydali xususiyatlarini ifodalashda komfortiligi ham muhim element hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda yirik shaharlar aholisining tartibsizlik va ifloslikka noroziligi bu injiqlik emas, balki jiddiy ekologik estetik noxushlikdan xabar deyishimizga asos bor. Chunki, noestetik va beo'xshov atrof-muhit, qishloq va shaharlardagi parvarish qilinmagan tashlandiq holdagi landshaftlar insonlarda, ayniqsa, yoshlarda yaratuvchanlik emas, aksincha, tajovuzkorlik, buzg'unchilik kuchlarining shakllanishiga imkon beradi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, emosiya bilan insonlardagi ma'lumot taqchilligini to'ldirish mumkin ekan. Bugungi kunda insonlarga tabiat komplekslari to'g'risidagi aniq, jiddiy ilmiy bilimlar yetishmayotgandek nazarimizda. Tabiatga nisbatan emosional-estetik munosabatlar zarur bo'lgan bir paytda, tabiatni qanchalik chuqur o'rgansak, atrof-muhit go'zalligini shunchalik keng va teran anglab yetamiz.

Landshaft go'zalligi esa insonlarga intuisiya orqali ta'sir etib, uning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga, ona zaminimizda hayotning davomiyligiga o'z hissasini qo'shadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, landshaft arxitekturasini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ishlarning uzviy davomi sifatida hududlarda landshaftlarni loyihalashda landshaft estetikasi masalalariga ham jiddiyoq yondashilsa, shahar va qishloqlarimiz yanada gullab-yashnashiga ulkan hissa qo'shgan bo'lardi.

KO'KALAMZOR HUDUDLAR BARPO ETISHDA FOYDALANILADIGAN MANZARALI DARAXT VA BUTALAR ASSORTIMENTI

Bugungi kunda mamlakatimiz shahar va qishloqlarida, aholi yashash hududlari, o'quv maskanlari, istirohat bog'lari, dam olish oromgohlari, avtomobil va temiryo'l bekatlari atrofida zamon talablariga javob beradigan nafis ko'rinishdagi yashil hududlar barpo etilmoqda. buning uchun mahalliy sharoitga mos keladigan manzarali yaproq va ninabargli daraxt, buta turlaridan foydalanilmoqda. Bugun ko'kalamzorlashtirish sohasida asosan quyidagicha turdagi manzarali daraxt va buta turlaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Kanada bagryannigi (*Cercis canagensis* L.), (Arg'uvon). ushbu manzarali yaproq bargli daraxt bizning sharoitimizda tumanlashtirilgan bo'lib, tabiiy holda shimoliy amerikada o'sib rivojlangan. bo'yi vatanida 10–12 m gacha boradigan, diametri 85–90 sm bo'lgan, shox-shabballari soyabonsimon shaklda bo'lgan o'ta manzarali daraxt. Barglari keng oval yoki yuraksimon, silliq tarzda tuzilgan.

Oddiy bagryannikdan bo'yining balandligi va sovuqqa chidamliligi bilan farqlanadi. Ushbu daraxtning eng asosiy ko'rkamligi u barg chiqarmasdan oldin, mart oyining ikkinchi yarmida, o'zining ajoyib pushti rangdagi gulchalarini namoyon qiladi. Uning gullari novdalarida pastdan yuqoriga qarab xuddi sariq tolning gullariga o'xshab joylashgan. Ushbu manzarali daraxtni ko'kalamzorlashtirishda, qatorga olib ekib borilsa, ajoyib kompozitsiya kelib chiqadi. Ushbu manzarali yaproq bargli daraxt gaz va tutunga chidamli bo'lib, zararkunandalardan kam zararlanadi va shamollar oqimiga ham chidamlidir. Unchalik tuproq tanlamaydi, faqat o'ta sho'rxok yer maydonlariga ekish tavsiya etilmaydi.

Oddiy bagryannik – (*Cercis siliguastrum* L.). Dukkakdoshlar oilasiga mansub o‘simlik. Bo‘yi vatanida 8–10 m gacha keladi, tanasi notekis, ko‘pincha qiyshiq o‘sadi. Barglari yarim doira shaklida, uzunligi 5–8 sm, eni 7–12 sm, yuqori qismi yashil rang li, pastki qismi to‘q yashil bo‘lgan o‘simlik. Gullari pushti rang, to‘q qizil rangli, uzunligi 1,8–2 sm,

novdalari dasta shaklida joylashgan, hidsiz. barglari ochilmasdan mart-aprel oyida gullaydi. Mevasi jigar rang, dukkagi butun qish davomida daraxtda qoladi. Nisbatan sekin o‘sadi. Qurg‘oqchilikka juda chidamli tur. Uning to‘q yashil barglari jazirama issiqda ham o‘zining ko‘rinishini yaxshi saqlaydi. Tuproqqa talabchan emas. Quruq toshloq, hatto, ohakli tuproqlarda ham yaxshi o‘sadi. Sovuqqa chidamli. nektarga boy. Janubiy yevropa va g‘arbiy Osiyoda tabiiy holda o‘sadi. Markaziy Osiyoda Tyan-shan tog‘larining g‘arbiy qismida, pomir – Oloy va karpas tog‘larida o‘sadi. Oq gulli shakllari (f.alba West) uchraydi. Yuqori manzarali, erta bahorda qizg‘ish rangli gullaydi. Barglari to‘q yashil, parvarishga muhtoj emas. Qurg‘oqchilikka juda bardoshli tur. Ko‘kalamzorlashtirish sohasida keng foydalanish mumkin.

Oq akas (*Robinia pseudoacacia*). Balandligi yaxshi tuproq sharoitida 25–30 m gacha yetadigan, shox-shabbasi siyrak, barglari navbatma-navbat joylashgan, juftsiz, patsimon tuzilgan yaproq barg li daraxt, aprelda barg yoya boshlaydi. Barglari kech kuzda, oktabrning oxirida to‘kila boshlaydi. Gulchalari oq, juda xushbo‘y, uzunligi 1,5–2 sm, qalin egilgan panjalarda uzunligi 10–20 sm. aprel oyining oxiri may oyining oxirigacha gullab turadi. Ayrim vaqtda yoz faslining oxirida, odatda, kuchsiz ravishda ikkinchi marta gullaydi. Tuproq sharoitlariga talabchan emas, har qanday tuproqlarda hatto o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda, O‘zbekistonning dasht, yarim dasht va cho‘l mintaqalarida ham bimalol o‘saveradi. Kuchsiz tuproqlarda ham havodagi azotni o‘zlashtirib bimalol o‘sa oladi. Ohak moddasi bo‘lgan qumoq tuproqlarda yaxshiroq o‘sadi. Oq akas qurg‘oqchilikka chidamli, yorug‘sevar ammo botqoqlikda yaxshi o‘smaydi. Shahar sharoitlarida (chang, tuz, tutun) oq akas bimalol o‘sadi, hatto gazlar bilan kuchli zararlansa ham oq akas o‘zini tezda tutib oladi.

Oq akas bugungi kunda mamlakatimizning aholi yashash hududlarida, shahar va qishloqlarimizda ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanilmoqda va bu sohada qimmatbaho manzarali daraxt hisoblanadi. Aholi hududlarini ko'kalamzorlashtirishda shuningdek, qishloq xo'jalik ekinzorlari atrofida ixota daraxtzorlari barpo etishda, avtomobil yo'llari atrofida himoya daraxtzorlari barpo etishda keng foydalaniladi. Ushbu oq akas daraxti tabiiy holda shimoliy amerikaning appalachi tog'lari yon qiyaliklarida o'sib rivojlangan. Markaziy Osiyoning ko'pgina hududlarida ushbu daraxt turi sun'iy daraxtzor sifatida barpo

etilgan. Yer balandligi bo'yicha ba'zan 25–32 metrgacha ko'tariladi. Diametri esa 100–120 sm gacha boradi. Ushbu daraxt dengiz sathidan 1800–2000 m balandlikkacha bo'lgan joylarda o'sib rivojlanmoqda. Farg'ona viloyatining shohimardon tumanida oq akas daraxti 2120 m balandlikda, samarqand viloyatining Omonqo'ton tog' yonbag'irlarida 1800–2000 m, shuningdek, Toshkent viloyatining Chotqol tog' vodiylarida 2100 m, 1300–1500 m da Chirchiq o'rmon xo'jaligining Oqtosh va Chimyon o'rmonchilik bo'limlarida ham uchraydi. Toshkent sharoitida 35 yoshdagi oq akas daraxtining diametri 36 sm ga yetgan. 75 yoshdagi bir oq akas daraxtining bo'yi 34 m va diametri bo'yicha 110 sm o'sishga erishgan. Oq akas – dukkakdoshlar oilasiga mansub tez o'suvchi, yorug'sevar, qurg'oq-chilikka chidamli, tuproq tanlamaydigan, bo'y i 35 m gacha boradigan, ajoyib manzarali yog'ochbop daraxt. Urug'i, ildizi va novdasi shuningdek, to'nkasidan ham ko'payadigan daraxt. Vatanimizda ixota, himoya va ko'kalamzorlashtirish sohalarida keng foydalaniladi. Agar uning ko'chatini o'z vaqtida, bir yilda 10–12 marotabagacha sug'orib turilsa, balandligi bo'yicha 2,5 m, diametri bo'yicha esa 4–5 m gacha boradi. Oq akas sho'rga chidamli daraxt hisoblanadi. 4–5 yoshidan mevaga kiradi, aprel oyi oxiri may oyida gullay boshlaydi. Ildizi yer qa'riga juda chuqur, ba'zan 15 m gacha boradigan, juda baquvvat manzarali yaproq bargli daraxt. Uning yog'ochi ancha mustahkam bo'lib, qurilish sanoatida, kemasozlik sanoatida, parket yasashda foydalaniladi.

Yapon saforasi (*Sophora japonica* L.). barglari to'kiladigan, balandligi 15–25 m gacha ko'tariladigan, tanasi to'g'ri shaklli novdalari yoyilib ketgan, oq akasnikiga nisbatan qalinroq, dumaloq, shoxshabballarni hosil qiluvchi manzarali daraxt. Gulchalarining uzunligi 1–1,5 sm, sariq yoki oqish yashil rangda, xushbo'y, keng supurgi shaklida, yig'ilgan, uzunligi 15–30 sm. Iyun-avgustgacha gullaydi. Mevalari tasbehsimon dukkakli, uzunligi 5–8 sm bo'lgan yashil rangli tez o'suvchi daraxt, soya joylarga yetarli darajada chidamli, shahar sharoitida juda yaxshi o'sadi. Gullashga va mevaga 5–7 yoshidan boshlab o'tadi. Qimmatli qog'oz beradi. Gullari va dukkaklaridan qimmatbaho rtun moddasi olinadi. Vatani yaponiya, xitoy. ko'kalamzor hududlarda to'q yashil, qalinshox-shabballari davrida juda chiroyli manzara namoyon etadigan, osilib turgan yashil tasbehsimon dukkaklari chiroyiga chiroy qo'shadi. Ular daraxtni qish faslida ham bezaydi. Shu sababli uning shox-shabballari uzoqdan bahorgi yashil libosni eslatadi. Ushbu manzarali, yaproq bargli daraxt turidan bugungi kunda mamlakatimiz shaharlarining diqqatga sazovor joylarida, istirohat bog'larida, yodgorliklar, xiyobonlar, avtomobil yo'llari atrofida, o'quv maskanlari, shifoxonalar va sport inshootlari atrofida yapon saforasining o'ta ko'rkam kompozitsiyaga ega bo'lgan yashil daraxtzorlari barpo qilingan va qilinmoqda.

Bandli eman (*Quercus robur* L.). Balandligi 30–40 m gacha boradigan yirik daraxt. Tanasining po'sti 40 yoshgacha silliq sariqko'kimtir rangda, keyinroq kulrang, deyarli qora tusda bo'ladi. Barglari novdaning uch qismida to'p-to'p bo'lib navbatma-navbat joylashgan, past qalin, cho'zinchoq, teskari tuxumsimon, uzunligi 5–15 sm, oxirida o'tmas cho'zilgan, parraksimon. Ushbu yirik manzarali daraxt may oyining ikkinchi yarmida barglarini yoyishi bilan bir vaqtda gullaydi, 40 yoshdan boshlab gullab meva bera boshlaydi (kamdan-kam holda 20 yoshdan). Toshkent shahrida ko'kalamzorlashtirish ishlarida uning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

– piramidasimon shakli – *F. Fastigiata*. yuqoriga qarab tikka o'sadigan novdali; ular tor ustunsimon shox-shabbani tashkil etadi;

- shox-shabballari pastga qarab o'suvchi shakli – F. Fendula;
- shox-shabballari sharsimon shakli – F. umbraculifera hort – bir tekis sharsimon shox-shabbagacha ega.

Ushbu manzarali daraxt toshkent shahrining markaziy hududi bo'lgan shimoliy vokzaldan boshlab, A. Temur xiyoboni atrofigacha, bolalar dunyosi mavzesidan «Dedeman» mehmonxonasi yo'nalishida, O'rdadan boshlab to «Hamza» teatrigacha va bolalar dunyosi yo'nalishidan to Falsafa ilmgohi yo'nalishigacha o'zining manzarali ko'rinishini namoyon etib turibdi.

Kashtan bargli eman (*Quercus castaneifolia.*). Ushbu daraxtning balandligi 30 m gacha yetadigan, shox-shabbasi keng rivojlangan bo'ladi. Barglari kashtanning bargini eslatadi, barglarining uzunligi 10–18 sm gacha, cho'zinchoq ellipsdan sharsimon shaklgacha, yirik, o'tkir uchburchaksimon tishchali. Sovuqqa chidamliligi o'rtacha. Qurg'oqchilikka yetarli darajada chidamli emas. Chiroyli, o'ta manzarali daraxtlardan biri. tanasi tekis, shox-shabbasi keng. Toshkent shahrida markaziy univermag atrofida, Bobur nomli istirohat bog'ida, ToshDAU hududida va boshqa hududlarda ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanilgan sersoya daraxt. Yosh novdalari, kurtaklari va barglarining orqa tomoni sarg'ish kulrang qalin tuk bilan qoplangan. Barglari doim yashil saqlanadi, oddiy tuzilgan, navbat bilan joylashadi, oval yoki cho'ziq tuxumsimon, cheti o'tkir tishchali, yuz tomoni to'q yashil, yaltiroq, orqa tomoni qalin tukli. Yong'oqlari 1–3 tadan bo'lib, kalta bandli, bir yilda yetiladi. May oyidan boshlab yozning o'rtalarigacha gullaydi. Kuzda ikkinchi marta gullaydi. Shuning uchun bir tup daraxtda har xil muddatda yetiladigan yong'oqlarni ko'rish mumkin. Po'kakli emanning yong'og'i tez ko'karib chiqadi. Niholi original tuzilishi bilan boshqalardan farq qiladi. Bu naycha yer tagida 20–30 sm gacha o'sadi, so'ng undagi kurtak una boshlaydi va yer ustiga boshlang'ich poya chiqadi, ildiz otadi. Po'kakli eman O'rta yer dengizining g'arbiy sohillarida va Janubiy yevropada, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, shimoliy Afrikaning janubiy hududlarida tarqalgan. MDHda Kavkaz va Qrimning subtropik rayonlarida ekiladi. Po'kakli eman issiqsevar, yorug'sevar o'simlik, sovuqqa chidamsiz, 15–17°C sovuqqa zararlanadi. nam va ohakli yerlarda yaxshi o'sadi.

Quruq tuproqda ham o'sa oladi. Uning po'stlog'idan po'kak olinadi. Bu emanni shimoliy tumanlarga introduksiya qilish katta ahamiyatga ega. Undan ko'kalamzor hududlar barpo etishda keng foydalaniladi.

Sharq biotasi (*Biota orientalis* Endl.). Qurg'oqchilik yer maydonlariga chidamli bo'lgan sharq biotasining vatani Xitoyning shimoliy o'lkasi hisoblanadi. Unchalik uzoq bo'lmagan davrdan buyon markaziy Osiyo mamlakatlarida ko'kalamzorlashtirish sohasida keng foydalaniladi. Bir uyli butasimon ushbu daraxtning balandligi vatanida 16–18 m gacha, bizning sharoitimizda esa 6–8 m ga yetadi. Shox-shabbasi piramidasimon, po'sti och jigar rang, Ba'zan to'q kulrangda, barglari och yashil bo'lib, g'uddasi ikkinchi yili yetiladi. Qadimda dehqonlar o'z bog'lari atrofida ekib kelishgan. Gullaridan so'ng sentabr oyida g'uddasi tayyor bo'ladi. G'uddasidan 15–20% urug' chiqadi. 1000 dona urug' og'irligi 20 gr dan iborat bo'ladi. Sharq biotasi issiqqa va qurg'oqchilikka o'ta chidamli bo'lib, mamlakatimizning har qanday hududida ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi. Doimo o'z vaqtida sug'orib borilsa juda tez o'sadi. Agar uning shox-shabballari qaychi bilan kesilib o'z vaqtida shakl berib borilsa ajoyib manzara namoyon etadi. Biota kesilgandan so'ng shox-shabballariga suv purkalsa barglari yanada yashnab ko'm-ko'k ko'rinish namoyon etadi. sekin o'sadi, biroz soyaga chidamli, issiqsevar. Markaziy Osiyo sharoitlarida, xususan O'zbekistonda ham yaxshi o'sishi bilan ajralib turadi. U noqulay sharoitlarga (sho'rlangan tuproqlarga) ham chidamlidir. U shahar sharoitida ham yaxshi o'saveradi. Chang va gazga chidamli tur. Yerga tosh yotqizilgan ko'chalarda ham yaxshi o'sadi. Shox-shabbasini kesib uning ko'rinishiga har xil shakl berish mumkin. Sharq biotasining har xil shakldagi turlari mavjud:

- shakldosh turi (*F. Rosedolis compacta homibr*);
- eng kichik zangori (*F. minima glauca hort*);
- sarvisimon – (*F. cupressoides hort.*);
- doim tilla rang – (*F. semperau escens nichols*).

Biotaning qurg‘oqchilikka, sovuqqa yuqori chidamliligi, tuproqqa talabchan emasligi va boshqa ijobiy ko‘rsatkichlaridan uni O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida bemalol foydalanish mumkin. Kuchli sho‘rlangan tuproqlarda ekishga tavsiya berilmaydi. Mojjevelnik sinfiga oid archalar asosan tog‘li yerlarda yaxshi o‘sadi, o‘rmonlarning ko‘p qismi archazorlardan iborat. Bu o‘rmonlarning ko‘pchiligini qora archaning daraxtsimon forma va turlari tashkil qiladi. Mahalliy xalq ularning hammasini archa deb yuritadi. Mahalliy qora archalar tog‘ iqlimi va tuproq sharoitiga juda yaxshi moslashgan. Archa tog‘ yonbag‘irlarida juda yaxshi o‘sib kattagina tabiiy o‘rmonzorlar hosil qilgan va bu yerlarda xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab yog‘och zaxiralari mavjud. O‘zbekistondagi daraxtsimon archalar uch turga bo‘linadi:

Zarafshon archasi yoki qora archa (*Juniperusseravschanica* Kom.). Ushbu archa O‘zbekistonda ko‘proq tarqalgan bo‘lib, 91 ming gektar archazorning 54 ming gektarini yoki 63% tashkil etadi. zarafshon archasi respublikamizning deyarli barcha tog‘larida uchraydi. U Chotqol, Qurama, bobotog‘, boysun, hisor tog‘ tizmalarining yonbag‘irlarida o‘sib, tabiiy o‘rmonzorlar barpo qilgan. Zarafshon archasi dengiz sathidan 2500 m balandlikda ham uchraydi. U asosan dengiz sathidan 1400–2500 metr balandlikda yaxshi o‘sadi va shu joylarda ko‘p tarqalgan. Zarafshon archasining tanasi uzun va to‘g‘ri, qulay sharoitda o‘sgan daraxtining bo‘yi 15–16 metr, diametri 50–60 sm gacha yetadi. Juda yaxshi sharoitda o‘sgan archaning bo‘yi hatto 20–25 metr, diametri esa 1–1,5 metrgacha boradi. Dengiz sathidan 2300 m balandlikda kuchli shamol esadigan va tuprog‘i quruq joylarda o‘sadigan zarafshon archasi ko‘proq eniga o‘sib, bo‘yi 1–1,5 metr, diametri esa 5 metrgacha boradi. Pishgan urug‘ining tinim davri 1,5–2 yil. Bahorda ekilgan urug‘lar bir yil o‘tgach siyrak unib chiqadi. Zarafshon archasi ko‘proq qum tarkibli tuproqda yaxshi o‘sib rivojlanadi.

Yarimsharsimon shakldagi Sovur archa (*Juniperus semiglolas* Rger.). Bu archa deyarli kam tarqalgan. Dengiz sathidan 1800–2000 metr balandlikda, zarafshon archasi o‘sadigan tumanlarda bu xildagi archa ahyon-ahyonda uchraydi.

Dengiz sathidan 2000–2700 m balandlikda, Turkiston tog‘ tizmalarining shimoliy yonbag‘irlarida, archa mintaqasining o‘rta qismida yarimsharsimon shakldagi archalar uchraydi. Mazkur archa shox-shabbali bo‘lib bo‘yi 16 metr, diametri 1,5 m gacha yetadi. Shox-shabbasi keng konusli, novdalari uzun va ingichka, yerga egilib tushgan. Ushbu archa daraxti sovuqqa chidamli, namlikka talabchan. u ko‘pincha tog‘ yonbag‘irlarining shimoliy va g‘arbiy qoyalarida, tuprog‘i sernam bo‘lgan soya-salqin joylarda yaxshi o‘sadi.

Turkiston archasi yoki o‘rik archa (Juniperus turkestanica Kom.). O‘zbekistonda ushbu archa g‘arbiy turkiston tog‘ tizmalarining shimoliy yonbag‘irlarida ko‘p tarqalgan bo‘lib, 34 ming gektarni tashkil etadi. Bu daraxt dengiz sathidan 2300–3200 m balandlikda ko‘p o‘sib rivojlangan. Lekin 2600 m balandlikda boshqa archalar bilan aralash holda, undan ham balandroqda esa faqat o‘zini uchratish mumkin. Turkiston archasi yirik daraxtlardan hisoblanadi. Tanasi yo‘g‘on, uchi tomon ingichkalashib boradi, balandligi 18 m, tanasining diametri 1 m gacha boradi. Turkiston archasi sovuqqa chidamli bo‘lib, boshqa archalarga qaraganda tuproq tanlamaydi. Archa tog‘ sharoitiga o‘rmonchilikning asosiy qismini tashkil etib keldi va keladi ham. U har qanday sharoitga chidamli va uzoq muddat yashaydigan o‘simlik bo‘lib muhim himoya vazifasini ham o‘taydi.

Bolalar bog‘i hududida quyidagi zonalar joylashtiriladi: bolalar bog‘i, o‘yin maydonchalari mavjud bo‘lgan yozgi ayvon, yashil ekinlar. Xo‘jalik hududi, yo‘llar, yo‘laklar.

Ikki guruhga mo‘ljallangan ayvonli maydonchalar bolalarning asosiy vaqtini o‘tkazadigan, shuningdek, ularning organizmini toblash va dam olishni tashkil etish uchun mo‘ljallangan. Maydonchani shunday loyihalash kerakki, tarbiyachilar har qanday vaqtda bolalar nima bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib turishi lozim. Har xil guruhdagi bolalarning o‘zaro aloqasiga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir maydonchani boshqalaridan yashil ekinlar bilan ajratiladi.

Soyabonlar guruh mashg‘ulotlari va faol harakat talab qilmaydigan (kitob o‘qish, qo‘g‘irchoq o‘ynash) o‘yinlar uchun mo‘ljallangan. Tinch dam olish hududida bolalar skameykalari va stollari joylashgan “yashil cho‘ntaklar” qo‘llaniladi.

Maydonchada soyabondan tashqari qum maydonchasi bo'lishi kerak. Maydonchada bolalar fantaziyasini rivojlantiradigan va oson yig'iladigan uskunalar katta ahamiyatga ega.

Guruh maydonchalari hududini zonalarga ajratish

Zonalar	Bolalar yoshiga qarab zona o'lchamlari	
	3 yoshgacha	3 dan 7 yoshgacha
Soyabon	32	32
Jismoniy tarbiya uskunalari va manejlari	20	50
Guruh o'yinlari	50	55
Qum maydonchasi	15	15
Tinch dam olish	33	28

Umumiy maydonlar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun quriladi. Unga jismoniy tarbiya maydoni, tirik burchak, poliz, mevali bog', cho'milish hovuzi, velosiped uchun halqasimon yo'lak va h.k. kiradi. Jismoniy tarbiya maydoni (250 m²) tirmashib chiqish, voleybol, basketbol, sakrash va boshqa harakatchan o'yinlar uskunalari bilan jihozlanadi. Tirik burchak (20 m²) bog'chaning xo'jalik hududiga yaqin joylashtiriladi. Bu yerda quyon, tovuq, va b. Kichik hayvonlar uchun qafaslar joylashtiriladi. Polizga janub tomondan soya tushmasligi kerak. Jo'yaklar iloji boricha sharqdan g'arbga qaratib joylashtirilishi lozim. Polizni karam, pomidor, ildizmevali ekinlar uchun hududlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Jo'yaklar eni 1 m, uzunligi 3 m. Mevali bog'da asosiy mevali daraxt va butalar turlari (olma, nok, olcha, gilos, smorodina, malina) bo'lishi lozim. Bolalar cho'milish hovuzi (25-30 m² va 25-50 sm chuqurlikda) bolalarni toblash va suv o'yinlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. bundan tashqari, kemalar suzishi uchun ariqlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu ariqlar guruh maydonlari yonidan o'tkazilishi mumkin.


Bolalar bog'chasi hududi perimetri bo'ylab butalar 2 qator tirik panjara qilinadi va eni 5 m dan kam bo'lmagan chiziqda daraxt qatori ekiladi. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan maydonchalar atrofidagi daraxtlar havo aylanishi hisobga olingan holda joylashtiriladi. Daraxt va butalar shunday joylashtirilishi kerakki, maydon hududining katta qismida (55 %) kun davomida quyosh tushishi lozim. Daraxt va butalar bog'cha binosiga soya qilmasligi kerak , shuning uchun daraxtlar binoga 10 m dan yaqin ekilmaydi, butalar esa 5 m dan yaqin ekilmaydi.

Gulzorlar asosan maydon va binolarning kirish qismiga, shuningdek, bino va xalqa yo'li o'rtasida yo'lak qilib joylashtiriladi. Har bir guruh maydonchalari atrofiga gulpushtalar ekish tavsiya etiladi. Gulzorlarga ko'pyillik gullar (popukli floks, pion, delfinium, akvilegiya, rudbekiya va h.k.) va uzoq gullaydigan bir yillik (xitoy astrasi, antirrium, petuniya, sinniya, klaksiya, portulak, kosmeya va b.) ekish maqsadga muvofiq.

Xo'jalik hovlisi hudud chegarasiga bevosita tutashgan bo'lib, boshqa hududlardan hatto bolalarning bexosdan kirib qolishiga yo'l qo'yilmaydigan darajada ajratilishi lozim. Xo'jalik hovlisi axlat yig'ish qurilmalari, kir quritadigan maydonchalar va xo'jalik omboridan tashkil topadi.

Yo'llar eni 3,5 m va 12x5,5 m li burilish maydonchasi bilan loyihalanadi. Ularni bino bo'ylab yeng qisqa masofada va fasad qismidan 8 m uzoqlikda loyihalanadi. Binodan bolalarni guruh maydonchalariga va guruh maydonchalaridan umumiyga o'tishi uchun 1 – 1,5 m li yo'laklar yotqiziladi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maydonchalari o'zaro velosiped uchish uchun mo'ljallangan xalqa yo'lak bilan bog'lanadi. Yo'laklar qattiq bo'lmagan qoplamalar bilan qoplanadi (g'isht, qum, shag'al, graviy, mayda graviy va h.k.).

Uzbekiston Respublikasi mustakillikka erishganidan sung fusarolik jamiyatini shakplanti-rish borasida;olining uzini-uzi boshkarish organlari faoliyatiga katta e'tibor berilmokda. Ularning funksiyalari kengaytirilmosda, XUKUkiy va moliyaviy asoslari kuchaytirilmokda.



Jamiyatni boshqarishning ayrim funksiyalari davlat tashkilotlaridan asta-sekin maxalliy uzini-uzi boshqarish organlariga utkazilmosda. An'anaviy maxallalarning jamiyatimiz hayotidagi rolini oshirishga, ular faoliyatini jonlashtirishga katta e'tibor berilmokda.

Metalla oksokoli saylanmokda, fukarolar kengashla-ri tuzilmoyeda- Bu kiritilayotgan uzgarishlar, k.ushimcha funksiyalar maxalla tushilishiga ta'sir kursatadi, uni ma'munan boyitadi va xizmat doirasini kengaytiradi Bu borada ilgari an'anaviy maxalla-larga xos bulmagan funksiyalar (kam ta'minlangan odamlarga yerdem puli berish. yoshparni xarbiy xizmatga chakirishda ishtirok etish, JEK xizmatlari. obodonlashtirish, turli ma'muriy masalalar) muximdir, maxalla ishini tashkip etishni, uni boshqarishni faollashtirish maksadida maosh olib ishlovchi oksokollar, kotiblar tayinlanmok,-da. Kelgusida bu kushimcha funksiyalar doirasining yanada kengayishi nazarda tutilmokda. Bu sushimcha funksiyalarni samarali amalga oshirish uchun axolisining soni 1,5-2,5 ming kishidan iborat bulgan an'anaviy ma^alla doirasi torlik siladi. Bu yangi sushimcha, boshkaruv funksiyalariniig mazmuk va moxiya™ bipan boglivdir. Fugarolar kengashi ma^alla ma'muriy xodimlarining (ossokol, kotib, faolpar) samarali faoliyat kursatishi, ular boshkara-yotgan ax,oli soni 6-10 ming kishi atrofida bulishini takoza etdi.

Shu tufayli bir nechta an'anaviy max.alpalar birlashtirilib, yangi katta maxallalar tashkil etildi. Ular ax,olisining soni 10 ming va undan ortis odamlarni tashkil etmokda. X;ozirgi kunda Toshkent shaxrida shunday katta maxallalar-dan 50 tadan ortiri tashkil etilgan va ular faoliyat kursatmokdalar.

Demak, xozirgi zamoy sharoitida, ya'ni maxaplalarga davlat boshsaruv organlarining eyrim funksiyalari. vakolatlari berilishi, ular xizmat doirasining kengaytirilishi, fukarolik jamiyati surilishida ular rolini oshirish borasida opib borilayotgan chora-tadbirlar bir

nechta an'anaviy maxallalarning birlashishiga va ular asosida shax.arning yangi strukturaviy bmrli - «ma'muriy maxap-la»parni vujudga keltirdi. «Ma'muriy maxdpla» uz tuzilishiga, xizmat doirasiga kura an'anaviy maxallalardan murakkabrokdir. «Ma'muriy maxapla» asosan bir nechta «an'anaviy maxdplanpardan xamda maishiy-madaniy-ma'muriy markazlardan ibortdir. Uning tarkibkga kiruvchi an'anaviy maxallalar uz markazlarini sak/lab k.oladilar. «Ma'muriy maxal-la^larning vujudga kepishi, Uzbekiston shaxarsozpik tamoyilla-ri rivojlanishidagi yangi xodisa-dir.

Men bitiruv malakaviy ishim (loyiham) mavzusini tanlaganim sabablaridan biri? o'zim shu bog'chaga borganligim va uni zamonaviy, chiroyli bo'lishini hohlaganim uchun tanladim, hamda bu bog'cha ta'mirlanish rejasiga kiritilgan bo'lib, bog'cha rahbariyati taklifiga binoan loyiha - taklif ishlanmalarini tayyorladim. Maktabgacha o'quv muassasalarining har xil turlari mavjud: yasli, bolalar bog'chasi, birlashtirilgan bolalar bog'chasi – yasli umumiy tipdagi: maxsus bolalar bog'chasi – mavsumiy, shahar tashqarisidagi, sog'lomlashtirish, yozgi dacha tipidagi va boshqalar.

Biz ko'proq qo'llaniladigan va ko'p quriladigan umumiy tipdagi bolalar bg'gchasi to'g'risida to'xtalamiz.

Ekspluatasiya vaqtiga qarab umumiy tipdagi bolalar bog'chalari-kunduzgi – bunda bolalar kuniga 10-12 soatdan bog'chada qolishadi.

Haftalik yoki kun bur yilik – bunda bolalar olti kun (bir haftada) bog'chada qolishadi.

Qo'shilgan yoki qisman haftalik – bunda bolalarning bir qismi hafta davomida olti kun bog'chada qolishadi. Bunday bo'linishi bolalarning bog'chada qancha vaqt qolishlariga qarab belgilanadi.

Moddiy muhitni yaratishda binoning ichki makonini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Me'moriy inshootlarda kechayotgan hayotiy jarayonlar muayyan obrazdan tashqari tashkillashtirilgan ichki makon va u bilan bog'langan predmet muhitisiz to'liq rivojlana olmaydi. Interyerning ichki makonini yaratishda funksional va estetik vazifalar amalga oshiriladi.

LOYIHA ISHLARIDA RANGLARNI TA'SIRI

Bir xillik odamga salbiy ta'sir etib inson organizmi himoyasini va asabni markazlashuvini kamaytiradi, ya'ni diqqatni bir yerga jamlay olmaydi. Dam olishda, ishlash va ijodiy ish qilishda maxsus shart sharoitlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarish estetikasini joriy kilish, xonalarni va interyerni ko'zni qamashtirmaydigan rangda bo'yash, yoritish, musiqa, bezash - toliqishning oldini olishda, ruxiy fiziologik yunalish hisoblanadi. Ko'pchilik ishlab chiqarish binolarini yashil rangga buyash maqsadga muvofiq, chunki, bu rang ta'sirsiz bo'lib, markaziy asab tizimini uyg'otishga ham, tormozlashga ham sabab bo'lmaydi. Asabga ta'sir ko'rsatadigan ko'k va havo rang bo'yoqlar bilan issiqlikni ko'p ajratadigan yoki shovqin hosil qiladigan xonalarni uskunalarini bo'yash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qizil va sariq ranglar ko'zga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ulardan ishchilar qisqa ishlaydigan, ya'ni, sozlash va ta'mirlash ishlarini bajarish vaqtidagina bo'ladigan xonalarda foydalanish mumkin.

Odamlar atrofdagi hamma narsalardan go'zallik qidiradilar. Ulardagi go'zallik yaratishga bo'lgan ishtiyoq shu qadar kuchliki, qilayotgan har bir ishlarini nafislik mezonlari bilan o'lchab boradilar. Bu o'z-o'zidan uyda, ko'chada, ishda tinch, xotirjam va chiroyli yashash istagini, mavjud buyumlardagi uyg'unlikdan zavqlanish hissiyotini uyg'otadi.

Xuddi mana shu uyg'unlikni o'z uyimizda yaratish va undan zavqlanish barchamizning qo'limizdan keladigan oddiy xatti-harakatlar natijasi ekanligiga ishonch bilan qarash lozim. Chunki zamonning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani hayotimizga har kuni yangidan-yangi qulayliklarni olib kirmoqda.

Masalan, yangi xarid qilgan yoki ta'mirdan chiqqan uyimizni o'zimiz xohlagandek bezatish uchun mutaxassis dizaynerlarning maslahatlari shart emasdek. Chunki bozor minglab assortimentdagi materialu, dabdabali va jimjimador buyumlarga to'la. Shunday ekan didimizga mos interyer yaratib, avval aytganimizdek tinch, xotirjam va baxtli yashashimiz ham mumkin. Ammo xalqimizdagi «chumchuq so'ysayam qassob so'ysin» degan naql bejizga aytilmagan.

Bizdagi estetik ta'b tug'ma bo'lsa-ku nur ustiga nur, ammo yo'q narsani bor qilib ham bo'lmaydi. Uyni chiroyli qilaman deb kattagina mablag', vaqt va ancha-muncha kuch sarflab, oqibatda kutgan natijaga erishmay qolishimiz ham mumkin. Bunday behuda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uchun uylarning zamonaviy interyerlarini sinchiklab kuzatib borishimiz, iloji boricha mutaxassis dizaynerlarning xizmatlaridan, maslahatlaridan foydalanishimiz kerak.

Obyektning vazifasidan kelib chiqqan holda, jamoat binolari uchun qo'yiladigan talablar har doim bir xilda turmaydi. Obyektning ijtimoiy mazmunining o'zgarishiga qarab, tarix davomida yangi o'zgarishlar kiritilib, to'ldirilib borilgan.

O'zining qadimiy kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan teatr misolida sahna bosh o'zgarishlari bilan bir qatorda ijtimoiy ehtiyojlarning, interyerining ichki makonini tashkil qiluvchi muhim qismlarni aniqlashga olib kelishini ko'ramiz.

Mening bitiruv malakaviy ishim (loyiham)da maktabgacha bolalar ta'lim muassasasining badiiy loyiha yechimi mavzusi bo'lganligi sabab, men avvalom bor uning funksional, hajmiy fazoviy va arxitekturaviy yechimini, hamda MTM ga borib amalda uni o'rganib chiqdim.

Ayni vaqtda u rekonstruksiya holatida bo'lib, men shu MTM rahbariyati taklifiga binoan uning tarzi (fasadlari)va interyer yechimi ustida ishladim.

Bitiruv malakaviy ishim (loyiham)da maktabgacha bolalar ta'lim muassasasining o'yin xonasini yorqin ranglar bilan bezab, bolalar jihozlari va o'yinchoqlarini yorqin ranglarda ishlov berdim.

BOG‘-PARK DIZAYNIDA SHARSHARALAR VA FAVVORALARNI AKS ETTIRISH

Tomonlari tekislangan va katta yumaloq yassi tosh, tomonlarga cheklangan yonboshdagi yotqizilgan toshlar, undan suvning shiddatli oqimi pastga tushuvchi silliq-ko‘zguli shaffof qo‘shimcha keng shakldagi qatlam sirpanishiga imkon beradi.

Sharsharaning kuchli monolit oqimini, baland kamarlaridan suvning katta hajmini toshlar orasidan, bir yoki ikki ensiz teshikdan yaratish mumkin. Katta oqim tushayotgan joyni bezatishda, sharashara kompozitsiyasining muhim dekorativ element bo‘lib xizmat qilishiga e‘tibor qaratish kerak. Bu yerda ramkaga solingan ko‘l manzarasi tashkil etiladi, ya‘ni tushadigan suv oqimini ajaratish uchun toshlar yotqiziladi.

Kaskad (pog‘onali sharshara) — suv oqimi uncha katta bo‘lmagan, bir necha darajadagi, vertikal bo‘ylab oqadigan yoki yengil egilgan tekislikda dekorativ devorlar uchun maxsus yaratilgan suv tushirgichlardan tashkil etiladi.

Hududning hatto ahamiyatsiz bo‘lgan qiyalikdagi bir butun tizimning turli manzaraviy ko‘rinishidagi kaskadlarning o‘zgartirilgan yo‘lidagi katta-kichik shaklli toshning va ularni turli yotqizilishida foydalanishda tavsiya etiladi.

Favvora — katta dekorativ effektga ega bo‘lgan shiddat bilan yuqoriga ko‘tarilib otilayotgan suvning, jilvalanishiga va harakatlanuvchi ko‘pikka hamda egilib turadigan suv natijasidagi, sun‘iy suvli qurilma. Favvoralarning tuzilishi juda ham effektlidir va funksional nuqtayi nazardan o‘zini oqlaydi. Ular salqinlatadi va havoni tozalaydi, manzaraga turli ko‘rinishni kirgizadi. Favvoralarning tashqi bezagi arxitekturaviy uslubda ham va favvoralarning tizzilab oqishi tasvirida ham turlicha bo‘lishi mumkin, oddiy tizillab oqib ko‘tarilishidan boshlab suvning yuza fonidagi, haykaltaroshlik bilan birga boy dekorativ qurilmasigacha. Favvoraning arxitekturaviy-badiiy yechimi arxitektura muhitiga joylashtirish xarakteri bilan bog‘liq bo‘ladi. Favvoraning ko‘rinishi bo‘yicha elementlari tizilib oqayotgan ko‘rinishida bo‘lishi: ularning balandligi va qiyaligi, turlicha o‘zaro joylashganligi, sachratib turish uslubi. Tizilib oqish, suvning ustuni va sachratib turishi, alohida tomchilar, pog‘onalar, tovlanishlar yoki suvning pastga oquvchi oqimi juda katta turli ko‘rinishni yaratishi mumkin.

Favvoralar ikki asosiy tipga bo'linadi:

- sharillab oqadigan, bunda suvning tezoqarliligi asosiy dekorativ element bo'lib xizmat qiladi;
- haykaltaroshlikka oid, bu yerda tez oqar suvlar haykaltaroshlik bilan yoki dekorativ shakllar bilan uyg'unlashadi (kosa, rakovina va boshqalar).

Ayniqsa, yorug'-musiqaviy favvoralar effektlidir, qaysiki to'rtta komponentning sinxron o'zaro harakati — suvlarning tezoqar dinamikasi, turli yorug'lik nurlari, rang va musiqlar -unutilmas taassurot yaratadi.

Favvoraning katta-kichikligidan qat'i nazar uning kompozitsion ahamiyati o'zgaradi. Undan dominanta, fokus yoki aksent sifatida foydalanish lozim.

Dekorativ basseynlar turlicha shakllar va o'lchamga ega, odatda, uning maydoni 2 dan 5 kv.m. gacha o'zgarib turadi. Basseynlar rokariy bilan, jilg'alar yoki dekorativ devor, sharsharalar yoki kaskadlar bilan birlashgan bo'lishi mumkin. Uning o'rtacha chuqurligi 0,4-0,5 m, basseynlar uchun o'simliklar bilan birga 0,05-0,5 m (aniq bir o'simlikning turi joylashtirilganda bunda ham katta bo'lishi mumkin), oquvchanligi — 0,2 m/s dan oshmasligi yoki suvni oyda 1-2 marta butunlay almashtirish. Suv o'simliklarini guruhlar bo'yicha joylashtirish kerak, maydonining yig'indisi basseyn maydonining 30% dan oshmasligi kerak.

Suv moslamalarining konstruktiv yechimi turli-tuman bo'lishi mumkin. Ayniqsa, muhandislik nisbatidan qaraganda suv moslamalarining murakkabligi favvora hisoblanadi, uning arxitekturaviy badiiy yechimi muhandislik moslamalarining xarakterini oldindan belgilaydi. Favvoralarni loyihalashda birlamchi eng jiddiy savollardan biri — bu suv ta'minotidir. Agar favvoralarda, kompozitsiyaning asosiy qismi haykaltaroshlik bo'lsa, suvning nisbatan uncha ko'p bo'lmagan miqdori sarflanadi va ularning suv ta'minotini shahar suv quvurlari ta'minlashi mumkin, ulkan (katta) favvoralar juda katta suv miqdorini sarflaydi. Shu bilan birga suvning katta sarflanishini orqaga qaytariluvchi suv ta'minoti bilan ham tashkil etish mumkin bo'ladi. Bunday hollarda favvoraga yaqin joylarga yer osti rezervuar bilan nasosli stansiya quriladi. Suv favvoraga nasos orqali uzatiladi va quvurlardan rezervuarga qaytib oqib tushadi.

Hozirgi vaqtda hattoki uncha katta bo‘lmagan favvrolarni yaratishda suv ta’minotining orqaga qaytarilishidan foydalaniladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli yechishda katta turlituman zamonaviy nasoslarga ruxsat etiladi. Favvoralarda qaytariluvchi suv ta’minotidan foydalanish, amal qilish maqsadga muvofiqdir, rezervuarga albatta, shamol olib ketgan sarfga, bir kunlik sarf 0,5-2% va bug‘lanish tashkil etadi (0,5-1% suvning bir kunlik sarfi, suv hajmini qo‘shish). Bunday holatda nasosning barqaror ishlashini ta’minlash uchun suvning doimiy muvozanatini ushlab turish kerak.

Favvoralar dekorativ hovuzlar uyg‘unligi bilan birga loyihalanishi mumkin. Dekorativ hovuzlarning konstruksiyasi turli-tuman bo‘lishi mumkin. 1 m gacha diametrga ega bo‘lgan, oddiy dekorativ hovuzning chuqurligi 20-50 sm bo‘lishi kerak. Avvalambor, u uchun kerakli o‘lchamda qiya qirg‘oqli kotlovan qaziladi. Ostiga yaxshilab ezilgan 10-15 sm loy qatlami yotqiziladi, undan keyin suv bilan birga tekislanadi va qurishga qo‘yiladi, so‘ngra esa 10-15sm ikkinchi loy qatlami yotqiziladi, unga maydalangan tosh yoki shag‘al to‘kiladi va shibbalanadi.

BOG‘-PARKLARDA YORITISH TIZIMINING ASOSIY ELEMENTLARI

Zamonaviy landshaft obyektlarida yoritish usullari turli-tuman bo‘lishi mumkin. Hududni yoritishda uchta usulni ajratish lozim:— *funksional, dekorativ va aralash*.

Funksional yoritish piyoda yurishga mo‘ljallangan marshrutlar va kunning qorong‘i vaqtida yo‘lning o‘tib ketadigan qismiga mo‘ljallangan.

Dekorativ yoritish kunning kechki vaqtida juda qiziqarli landshaft kompozitsiyasini namoyon qilishga mo‘ljallangan.

Aralash yoritish yuqorida keltirilgan funksiyalarni yechishga ijozat beradi.

Landshaft obyektlarida dekorativ yoritish eng ko‘p ahamiyatga ega. Yaxshi bajarilgan dekorativ yoritish yordamida yaxshi ko‘rinish effekti va katta hayajonlilik harakatlariga erishish mumkin. O‘simliklar va gullarning pastdan yoritilishidan foydalanib va yorug‘likni maxsus qoplashda aks ettirilishi orqali qiziqarli kechki ssenariyni yaratish mumkin.

Bog‘ yangi yoki eskiligiga qaramasdan, unda juda ko‘p yoki kam konstruksiyalar va o‘simliklardan, dekorativ yoritilishning quyidagi tiplaridan foydalaniladi:

— to‘g‘ridan to‘g‘ri yoritilish (yorig‘lik bilan to‘ldirilish) —bevosita manbadan yorug‘lik taraladi va daraxatlar, butalar, gullarni— bir butun kompozitsiyani yoritadi; to‘g‘ri yoritish manbalari yopiq bajarilishdagi har qanday hollarda bo‘lishi mumkin.

— qisman (lokal) yoritilish — manbadan yoritish taraladi,yuzaga aks etadigan, ya’ni undan, o‘z navbatida, kerakli obyektning aksi ko‘rinadi; ayniqsa, dekorativ devorlar, shpaler, vertikal ko‘kalamzorlashtirish qisman pastdan yoritib turish samaralidir, va yana kottejning devori, aniqrog‘i, muhitning alohida obyektlari yoritib ko‘rsatiladi.

— konturli yoritilish — manbadan yorug‘lik taraladi va alohida elementlarning konturini yoritadi, misol uchun, kichik me’moriy shakllar.

Butun hududni yoritilish stenariysi puxtalik bilan o‘ylangan bo‘lishi va xususan qiziqarli landshaft kompozitsiyalarini pastdan yoritishning taxminiy modellash uslubi aniqlangan bo‘lishi kerak. Buni ko‘chiriladigan qisqa muddatga yoqiladigan fonarlar yordamida ko‘rsatish mumkin.

Yoritilish tizimidagi muhandislik ta’minlash masalasi asosiy e’tiborga loyiq. Yoritilishdagi doimiy manbalarning aralashuvi(yoritgichlar) atmosferaning cho‘kishlaridan himoyalangan bo‘lishi kerak. Buning uchun yerga ulangan himoya qiluvchi simli maxsus yoritgichlardan foydalaniladi. Shuningdek, effektiv yoritgichlarning turli-tuman tiplarini ulash uchun suv o‘tkazadigan bo‘limlar qo‘llaniladi. 25 kv.sm hajmli ishoradan (xatti-harakat) yoritgichlar uchun, ya’ni yumshoq yorug‘lik taratilishni ta’minlaydigan ekranlar tayyorlash mumkin. Bu maqsad uchun taxta bo‘lagi va boshqa materiallardan ham foydalanish mumkin.

Suv o‘tkazadigan qo‘rg‘oshin qobiqli kuchli tok uzatadigan kabel, ya’ni tajribalar davomida yoritgichlar bilan yuza qatlamda bo‘lishi, keyin esa yerga ko‘mish mumkin, hech qanday maxsus kanallar kerak emas. Ko‘pincha ikki yoki uch simli elektron kabellardan foydalaniladi, boshqalari esa, ko‘p hollarda telefon kabellarini, qo‘rg‘oshinli bilan bir qatorda ko‘mish mumkin emas. Uch simli kabellarning biridan esa yerga ulanish sifatida foydalaniladi. Kabelning tashqi qavati tashqi shikastlanishdan himoyalangan bo‘lishi kerak.

Asosan tashqi qavati metall qutilarga joylashtiriladi, bu qutilar esa yerga ulangan mis simdan bo‘lishi kerak. Yerga ulangan simning tashqi konturini uch shtirli razyemdan foydalanish tavsiya etiladi.

Hozirgi kunda realizatsiya qilinayotgan elektron qurilma, turli uchastkalarda xizmat qilish uchun foydalanishga, uch shtirli razyem orqali uch simli kabelga ulanmoqda. Zohiran yerga ulangan simlar — amaliy tomondan yaxshi, ammo samarali emas. Uchastkani yoritishda tizimni kengaytirish kerak bo‘lib qolsa, qo‘shimcha kabellarni nazarda tutish lozim bo‘ladi. Yoritgichlarni tanlash hududni loyihalashda kechki yoritish ssenariysida qabul qilinganligi bo‘yicha amalga oshiriladi. Nur taratadigan yoritgichlar yerning usti qatlami va past butalarni yoritish uchun mo‘ljallangan. Ularning eng yaxshisi yo‘l bo‘yida, kerakli bo‘lgan ko‘rinishni ta’minlab va predmetlarni yetarlicha

yoritiladigan qilib joylashtirish kerak. Yoritgichlarning xususiyati yorug‘likni muntazam yo‘naltirish — predmetlarni lampadan ko‘zni qamashtiruvchi yarqirashi bo‘lmaganda yaxshi ko‘rinishi (ko‘pincha u predmetlarni va ochiq joy atrofini ajratish imkoniga sabab bo‘ladi). Yo‘l bo‘yiga yorug‘ligi kamroq yoritgichlarni joylashtirish kerak.

Bir tomondan yuqoriga yo‘naltirilgan yoritilish shunday talab bilan qo‘llaniladiki, ya’ni predmet faqat bir tomondan ko‘rinishi va u yer qatlamidan biroz balandroq joylashtirishi kerak. Yoritgichlar predmet oldida, predmetga to‘g‘ri yo‘naltirilib o‘rnatiladi — pastdan yoritishning bunday uslubi joy relyefini foydali tarzda namoyon qiladi. Umumiy nur to‘plamini yoyib taratish, tayanchga o‘rnatilgan yoritgichlar orqali yaratiladi. Shahar xiyobonlarini yoritishda 4-5 m balandlikdagi tayanchlar qo‘llaniladi. Ko‘plab xiyobon va parklarda yoritish uchun 2,5-5 m balandlikdagi tayanchlar qo‘llaniladi. Har bir konkret holat uchun tayanchlarning balandligi alohida, yoritgichning quvvat konstruksiyasidan, yorug‘lik taralish maydonidan, yoritishning kerakli darajasidan kelib chiqib hisoblanadi. Yorug‘lik oqimining yo‘nalganlikdagi yoritishning umumiy yoyilishi uchun yoritgichlarning bir necha turlari qo‘llaniladi: — an’anaviy tiðdagi yoritgichlar, ya’ni lampadagi yorug‘lik ravshan yoki plafonning yon devorlariga xira tarqaladi;

- yorug‘lik oqimining past darajadagi ravshanligi yoki xira plafon orqali yo‘naltiriladi;
- yorug‘likning tarqalashi bilan ekranda aks etishi.

Landshaft obyektlarida balandligi 1 m tayanchda o‘rnatilgan, yoritgichlardan ham foydalanish mumkin. O‘zining xususiyati bo‘yicha lampasiz, optik-tolali texnologiya asosda bajarilgan yoritgichlar qiziqroq yoki hayajonliroq ko‘rinadi. Yorug‘lik energiyasining har bir yoritgichni markaziy manbadan olib borishi optik kabel yordamida amalga oshiriladi. Bunday tizim mutlaqo xavfsizdir. Optik-tolali kabel elektr energiyasini emas, faqat yoritish energiyasini bajaradi. Bunday texnologiyalar turli-tuman arxitektura-badiiy vazifalarni yechishda foydalaniladi. Yoritiladigan kabelni yo‘lkalarning chetidan o‘tkazish, daraxtdan yorug‘ lianalarini tushirish, hovuzning konturini belgilash va hattoki suvga tushirish mumkin. Kabellarning rangini zarur bo‘lganda yorg‘lik manbayidagi yorug‘lik filtrining keskin o‘zgarishi hisobiga ko‘p marta o‘zgartirish mumkin. Bundan ham qiziqrog‘I yorug‘lik va rangli effektlarni yorug‘likka optik-tolali iplarni uzatishdan, ya’ni faqat uchginani „yondirishdan“ foydalanib erishish mumkin..

Alisher Navoiy nomidagi madaniyat istirohat bog'i.

Umumiy maydoni 42,2 gektar ekan

Bog'ni asosiy kiriwi Mustaqillik kuchasiga bog'langan. Kichik yana ikkita darvoza mavjud bulib bittassi O'zbrkiston ikkinchisi Baxodir Shukurov ekan kuchalar nomi

O'zbekiston kuchasi tomonda bog'ga viloyat hokimligi va Mulla tuychi nomidagi musiqali drama teatri bilan bog'lanib ketgan

Mustaqillik kuchasi tomondan esa Abdulla Oripov nomidagi yowlar ijod maktabi va o'rta qavatli turar-joylar bilan bog'lanib ketgan

Boxodir Shukurov kuchasida esa Nasaf fudbol klubini mashqlar utkazish kichik yopiq maydoni, ucell markaziy viloyat filiallari b.n bog'lanib ketgan

Yurtboshimizning g'amhurliklari tufayli, ubolalarimiz sog'lom bo'lishlari uchun kishining bu sohada qabul qilingan qarorlari-yu va amaldagi ishlarini e'tiborga olib, bizning loyihamizda suz havzasi va sport zalini interyer yechimini berishga harakat qildim.

Topshiriqqa amal qilingan holda kapalak emblemasini, buklet va vizitkaning badiiy yechimini tavsiya qildim. Bularda ham yorqin ranglardan foydalandim.

Diplom oldi loyihamda va diplom oldi amaliyoti davrida men bu mavzu ustida ko'p ishlab, maket va eskizlar bajardim, o'yin xonasining va muziqa zalining maketimdan rasmlarini ham taqdim etdim.

ILLYUSTRATSIYA









Выкопать яму



Установить по уровню садовый пруд



Заполнить песком пространство вокруг пруда



Посадить растения и заполнить пруд водой







5 шагов по устройству пруда



1



2



3



4



6



5





HAYOTIY FAOLIYAT HAVFSIZLIGI QISMI

HAYOTIY FAOLIYAT HAVFSIZLIGI QISMI BO"YICHA

Diplom loyiha ishida: *Qarshi shahridagi markaziy istirohat bog'ning landshaft dizayni* mavzusi bo'yicha hozirgi zamon muhandislik talablaridan kelib chiqqan holda, Samarqand shahar ko'p qavatli turar joylar hovlisidagi , mahalla aholisi va ularning farzandlari uchun bolalar maydonchasida yaxshi tarbiyalanishi uchun havfsizlikni ta'minlash, yong'in va elektir havfsizligi oshirish, zilziladan va yog'in-sochinlardan odamlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'rib chiqilgan.

Hududning o'ziga xos meteorologik va klimatik xususiyatlariga ko'ra, yil davomida atmosfera havosidagi zararli aralashmalarni tarqalib-yoyilib ketishini qiyinlashtiradigan sharoit kam kuzatiladi.

Me'moriy - landshaft yechimida havoning isib ketishi, sovib ketishi, yer relyeflari, havoning tezligi va shamol yo'nalishi, quyoshning tushishi va yog'ingarchilik vaqtida suvlarning ketish yo'li eng muhim o'rinni egallaydi.



Shuning uchun ham diplom loyiha ishining “Hayotiy faoliyat havfsizligi” bo'limida biz asosiy e'tiborni har qanday joyda ham, istalgan paytda ham sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan zilzilaga va tez-tez yuz beradigan yong'in, portlash, elektr havfsizligi, gazdan zaharlanish, havo haroratining keskin sovub va isib ketishi,

sanitariya-gigiyena talablari hamda tizimlarining ishdan chiqishi, suv bosishi kabi ofatlarga qaratamiz.

Qurilishi loyihalalanayotgan bino Samarqand shahrida, ya'ni seysmik jihatdan 9 ballik zilzila bo'lish ehtimoliga ega bo'lgan zonada qurilishi rejalashtirilgan va shundan kelib chiqqan holda loyiha ishlarida seysmik jihatdan mustahkamlik masalalariga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish, ularning quriladigan joyi, qavatlar soni, qurilish konstruksiyalarining mustahkamligi, qurilish materiallarining sifati, qurilish ishlarining sifatli bajarilishi, bino va inshootlarning qurilishida hamda ekspluatatsiyasida “QM va Q” talablariga rioya qilinishi va boshqa shu kabi ko'plab masalalarga bog'liq bo'ladi.

Bulardan tashqari loyihalalanayotgan obyektning ishga tushirilganidan keyin unda yashaydigan aholining turmushi va maishiy hayoti davomida ham xavfsizligini ta'minlash masalalari loyihalashtirish bosqichidayoq batafsil qarab chiqilishi zarur va maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ish (loyihasi)da hayot faoliyati xavfsizligi nuqtai nazaridan biz aholi yong'in havfsizligini ta'minlash masalalarini kengroq qarab chiqamiz.

YONG'INLAR VA YONG'IN HAVFSIZLIGI

Samarqand shahri toqqa yaqin hududda joylashgani uchun yomg'ir tez - tez yog'ib turadi. Yozda esa qurg'oqchilik bo'ladi. Shuning uchun yomg'ir, yong'in havfsizligini ko'rib chiqamiz.

Samarqand shahridagi Markaziy istirohat bog'i bosh tarxini loyihalashda, ulardagi me'moriy landshaft ketma-ketligi va iqtisodiy afzalligi bilan birga, sanitariya va yong'in havfsizligi masalalari, yechilishi shart. Buning uchun, moddiy sarf-harajatni yuqori darajada samaradorligini ta'minlash va yer hududini unumli foydalanish bilan bir qatorda quyidagi muammolarni yechilishi zarur hisoblanadi:

- mahalliy landshaftni va eng ko'p takrorlanadigan kuchli shamol yo'nalishini hisobga olgan holda joylashtirish;
- yog'ingarchilik ko'p bo'lgani uchun suvni ketish yo'llarini ko'paytirish;
- vazifasi nuqtai nazaridan bog' ichidagi bino va inshootlarni yong'in va portlash

xavfi alomatlari bo'yicha alohida ichki hududlarga ajratish;

- Markaziy istirohat bog'ining hududini sanoat korxonalari joylashgan chegaradan sanitariya me'yori talablariga binoan havfsiz masofada joylanishini ta'minlash;

-bino va inshootlarni joylashtirishda, yong'in xavfsizligi me'yorlari talabi asosida

yong'inga qarshi havfsiz oraliqlarni to'g'ri qo'yilishini ta'minlash;

- Markaziy istirohat bog'ining hududini avtomobil yo'llari va piyodalar uchun yo'lkalar bilan ta'minlash;

-yong'inga qarshi, o'tni o'chirish maqsadida ishlatish uchun suv ta'minoti masalasini hal etish.

Yong'in – insonlar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi, moddiy va madaniy boyliklarni yo'q qiluvchi ofat, nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni.

Yong'in kelib chiqishi uchun quyidagi uch omilning bir vaqtning o'zida bir joyda bo'lishi yetarlidir. Ya'ni:

- yonuvchi moda (kog'oz, yog'och-taxta, neft va uning mahsulotlari);
- yonish manbai (gugurt, uchqun, alanga);
- oksidlovchi (kislород, havo);

Yong'inning oldini olish uni o'chirishdan ko'ra osonroqdir. Quyida yong'in havfi paydo bo'lganda va yuz berganda aholining harakatlari qanday bo'lishligi haqida fikr yuritamiz:

Yongingacha bo'lgan harakat:

- 1.Yongin va gaz havfsizligi qoidalariga rioya kiling.
- 2.Yengil alanga oluvchi moddalar va buyumlarni issiqlik manbai yonida saqlamang. Yong'inlar kelib chiqishining sabablarini tahlili to'g'risidagi ma'lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

Yong'inlarni tez, keng tarqalib ketishining asosiy sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- inshootlar loyihasini ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar;
- inshootlar qurilishida Qurilish me'yorlari va qoidalari hamda davlat standartiga rioya qilmaslik;

- yong'in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko'rsatilgan, yong'inning oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi;
 - fuqarolarning yong'in sodir bo'lganda o'z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushib qolishlari;
 - bolalarning yong'in chiqishiga olib keluvchi uyinlariga kattalarning beparvolik bilan qarashi;
 - yong'inga qarshi kurashda qo'llaniladigan o'chirish va qutqarish vositalarining yetishmasligi.
- Yong'inning oldini olish chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:
- yong'in va portlashga xavfli bo'lgan barcha obyektlarni inventarizatsiyalash (korxona yoki muassasaga qarashli mol-mulkni hisobga olish, ro'yxat qilish), pasportlashtirish va deklaratsiyalashtirish (kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy hujjat tuzish);
 - tashkilot va muassasalarda doimiy ravishda davlat maxsus tekshiruv idoralari tomonidan yong'in va portlashning oldini olish bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish, yong'in chiqishi va portlashlarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash, zudlik bilan bartaraf etish va ularga yo'l qo'ymaslik;
 - qurilish me'yorlari va qoidalari, davlat standartlariga doir maxsus buyruqlarni so'zsiz bajarish;
 - yong'indan muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari bergan ko'rsatmalarni bajarish, eng asosiysi yong'inga olib keluvchi vaziyatlarni maxsus kuchlar tomonidan birinchi navbatda bartaraf etish bo'yicha qilinadigan ishlarni bajarish;
 - yong'inni bartaraf etish chora-tadbirlarini bilish, qolaversa yong'inni o'chirish uchun birinchi daqiqada bir piyola, ikkinchi daqiqada bir chelak suv yetarli bo'lishini, uchinchi daqiqada esa bir sisterna suv ham yetmay qolishi mumkinligini yodda tutish;
 - aholining barcha tabaqasini muntazam ravishda yong'inning oldini olish chora-tadbirlarini bajarish bo'yicha o'rgatib borish.
- Yong'inga qarshi kurashda va uni bartaraf etishda quyidagi qoidalarga amal qilish katta samara beradi:
- yong'in keng tus olib ketmasligi uchun yonayotgan joyning tevarak-atrofini suv va boshqa yonmaydigan qorishmalar hamda moddalar bilan sovitib, yonishiga yo'l kuymaslik;
 - yonayotgan hududni ko'pik, kukun, qum, qalin mato va havo o'tkazmaydigan boshqa narsalar bilan ajratib, yakkalab quyish;
 - yon-atrofdagi barcha tez yonuvchi jihozlarga, inshootlarga maxsus ko'pik-kukunli, ishqorli suv sepish;
 - yonish reaksiyasini kimyoviy yo'l bilan sekinlashtirish.

O'tni o'chirishni dastlabki uskunalari.

O'tni o'chirish uskunalari: qo'lda ishlatiladigan birlamchi vositalar; bir joyda muqim o'rnatiladigan va mexaniq yoki avtomatik harakatga keltiriladigan uskunalar; harxil masofadagi hududlarda harakatlanadigan ko'chma uskunalar va boshqalarga bo'linadi.

Birlamchi o't o'chirish vositalariga, tashkilot ishchi va xizmatchilari yoki ixtiyoriy yong'in drujina (IYoD-DPD) a'zolari tomonidan ishlatishga mo'ljallangan, yong'inga qarshi «qalqonlar»da izohlangan oddiy asboblari, maxsus yeng va dastaklar bilan jihozlangan ichki o't o'chirish kranlari va boshqa uskunalar kiradi.




Рис. 60. Пожарный пункт и размещение инвентаря:
1 — песок; 2 — огнетушители; 3 — доска правил пожарной безопасности; 4 — бочка; 5 — рукава; 6 — багры; 7 — ствол пожарный; 8 — доска-график работы ДПД.

Yong'inga qarshi «qalqon» va undagi asboblarni o'rnatilishi.

Unda yong'in xavfsizligi me'zonlariga ko'ra quyidagi o't o'chirish vositalari va asboblari zarur bo'lganda oson olinadigan qilib osib qo'yilgan bo'lishi shart:

- 2 dona qo'lda ishlatiladigan ko'pikli o't o'chirgich;
- 1 dona karbonat angidridli o't o'chirgich;
- 2 tadan misron va ilgakli changaklar;
- 2 ta bolta; 2 ta yong'inga qarshi suv uzatgich elastik yenglar;
- 2 ta maxsus tayyorlangan konussimon chelaklar;
- 2 ta bel kurak; 1 ta bochkada suv va 1 ta qutida qum va h.k.

Bunday qalqonlar jamoat binolarning hovli tomonidan, binoga kirish eshigiga yaqin joyda o'rnatiladi. Ishlab chiqarish korxonalarida, yong'in xavfi mavjud bo'lgan sexlar va omborxonalarga kirish eshiklariga yaqin joylarda o'rnatiladi. Himoyalalanayotgan hududning har 5000 kvadrat metriga 1 ta «qalqon» xisobidan loyihalashtiriladi.

Undagi suv bochkasining hajmi 200 l dan kam bo'lmasligi kerak, qum solinadigan qutining hajmi esa 2-3 m³ atrofida bo'ladi.

O't o'chiruvchi ko'piklar. Kimyoviy yoki havoli mexanik ko'piklar, ko'pik hosil qiluvchi kukunlarni suyuq muhitda eritish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun tarkibida javhar o'rnini bosuvchi alyuminosulfat $Al_2(SO_4)_3$ bilan ishqor o'rniga natriy bikarbonat $NaHCO_3$ moddalarining quruq holatdagi qorishmalaridan tayyorlangan kukun, maxsus moslamalarda bosim ostida suvga aralashtirib, elastik quvurlarda oqiziladi. Yo'lda o't o'chirish balonlarida ko'pik hosil qiluvchi javhar qismida, sulfat javhari H_2SO_4 yoki sulfat tuzi bilan oksidlangan temir $Fe_2(SO_4)_3$ moddalarining aralashmasi ishlatiladi.

Har qanday maqsadda qurilgan inshoot va binolar(yashash, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish joylari)da ham odamlarning harakatlanishini muhim jarayon deb qarash zarur. Harakatlanish jarayonining kechadigan sharoitidan bog'liq ravishda ikki turi mavjud. Birinchisi odatiy harakatlanish, ikkinchisi esa–majburiy harakatlanish. Bino va inshootlardagi oddiy ish sharoitlarda kishilarning odatiy harakatlanishi sodir bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar sharoitida esa kishilarning hayotiga havf tahdid solishi sababli, majburiy harakatlanish amalga oshiriladi.

Aholini evakuasiya qilish deb nomlanuvchi, majburiy harakatlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ofat (havf) manbaidan havfsiz joyga harakatlanib odamlarning tashqariga chiqishi Bog'da joylashgan bino va inshootlarda xonadan-xonaga eshiklar orqali, o'tish yo'laklari va koridorlar bo'ylab yurib, zinapoyalardan tushishiga to'g'ri keladi. Bu yo'llar va chiqish joylari ma'lum talablar bajarilgan taqdirda evakuasiya yo'llari deyiladi. Yuz bergan favqulodda vaziyatlarning turiga bog'liq ravishda harakatlanish mobaynida odamlarga ta'sir etuvchi havf va odamlar oqimining miqdori o'zgarib boradi. Bu o'zgarish binolarning mo'ljallanishi, odamlar oqimining tarkibi va turiga hamda evakuasiyaning bosqichiga bog'liq ravishda har xil kechadi.

Evakuasiya paytida o'zining mustaqil harakatlana olish nuqtai-nazaridan kishilarning holati odamlar oqimini xarakterlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Evakuasiya chiqish joylarining eng kam miqdorini aniqlash uslubini me'yorlar talablari bilan asoslash lozim. Xonalar, qavatlar va binolardagi evakuasiya chiqish joylari miqdori va umumiy kengligi ular orqali olib chiqiladigan odamlarning ehtimol tutilgan eng ko'p sonidan va yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy masofadan, odamlar bo'lishi ehtimoli bo'lgan eng uzoqdagi (ishchi o'rni) joydan eng yaqin evakuasiya chiqish joyigacha bo'lgan masofadan kelib chiqib aniqlanadi.

Turli xizmatlar uchun mo'ljallangan yong'in havfi bo'lgan, yong'inga qarshi tusiqlar bilan ajratilgan bino qismlari mustaqil evakuasiya chiqish joylariga ega bo'lish lozim.

Bino va inshootlarda odamlarni harakatlanishi zaruriy funksional jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni kechish sharoitiga qarab odamlarni harakati me'yoriy yoki majburiy holatda bo'lishi mumkin. Birinchisida odamlarni bino va inshootlarda kundalik ehtiyoj yuzasidan normal harakatlanishi bilan ifodalansa, ikkinchisiga bino yoki xonalardan yong'in yoki zilzila sharoitida odamlarni havfli muhitdan havfsiz joyga majburiy ko'chish uchun mo'ljallangan harakati tushiniladi.

Majburiy evakuasiya jarayoni ikki-to'rt pog'onada o'tkaziladi.

Birinchi pog'ona bu binoning oxirgi qavatida eng chetda joylashgan xonadagi chiqish eshigidan maksimal uzoqlashgan ish joyidan odamlarni koridorga chiqishidir. Bularga barcha bino va inshootlarning yuqori qavatidagi xonalari kiradi.

Ikkinchi pog'onaga odamlarni xonaning chiqish eshigidan to zinaxona eshigigacha bo'lgan masofani bosib o'tishi uchun mo'ljallangan harakati kiradi. Bunda harakatlanuvchi oqim koridor bo'ylab o'tadi. Agar bino bir qavatli bo'lsa, evakuasiya ikkinchi pog'onadan so'ng tugashi mumkin.

Uchinchi pog'onaga odamlarni yuqorigi qavatning zinaxonaga kirish eshigidan to birinchi qavatda zinaxonadan chiqish eshigigacha bo'lgan masofani bosib o'tish uchun qilingan harakati kiradi.

To'rtinchi pog'onaga odamlarni zinaxonadan chiqqandan keyin vestibyl yoki foye va tambur orqali tashqariga chiqish eshigigacha bo'lgan masofani bosib o'tishiga qaratilgan harakati kiradi.

Evakuasiya yo'llari deb, bino va inshootlarda xavfli holat yuzaga kelganda, odamlarni bino ichida joylashgan doimiy ish joyidan, qisqa vaqt ichida tashqariga olib chiqadigan elementlar tizimiga aytiladi. Bunday elementlarga odamlarni doimiy ish joyidan eng qisqa yo'l bilan tashqariga olib chiqadigan yo'nalish bo'ylab joylashgan yo'laklar, koridorlar, dahliz, zinaxonadagi zinapoyalar va maydonchalar, darvozaxonalar-

vestibyl, tambur (kirish darvozalari orasidagi maxsus xona), chiqish eshiklari va boshqalar kiradi.

Chiqindi va chang to'planishiga mo'ljallangan bunker ostida yonmaydigan materiallardan o'tish yo'llari loyihalanishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik loyihalash me'yorlariga asosan portlashga, yong'inga qarshi va yonish havfsizligi talablari buyicha qabul qilish kerak.

Bir yo'nalish buyicha harakatlanayotgan kishilar oqim zichligi, harakat tezligi, harakat intensivligi va yo'l qismining o'tkazish qobiliyati kabi ko'rsatkichlar bilan ta'riflanuvchi odamlar oqimini tashkil etadi.

Odamlar oqimi zichligi evakuasiya yo'lida-maydon birligida joylashuvchi odamlar mikdorini tashkil etadi. Katta yoshdagilarni evakuasiya qilishda zichlik 10-12 odam/kv.m ni, o'quvchilarni evakuasiya qilishda 20-25 odam /kv.m ni tashkil etishi mumkin.

Odamlar oqimining harakat tezligi yo'l turidan va odamlar oqimi zichligidan kelib chiqadi. Odamlar oqimining chegaraviy zichligida odamlar to'planmasligi uchun harakat tezligi quyidagilarni tashkil etadi:

- gorizontal yo'l uchun 15 m/daqqa
- zina orkali pastga 8 m/daqqa
- zina orkali yuqoriga 11 m/daqqa

Odamlar oqimi intensivligi, evakuasiya yo'lidagi 1 metr eshik orqali 1 daqiqa ichida o'tuvchi odamlar sonini ta'riflaydi.

Yo'l qismining o'tkazish qobiliyati undan vaqt birligida o'tgan odamlar sonini ta'riflaydi.

Zaruriy evakuasiya vaqti deb, u tugagandan so'ng yong'in paytida ishchi mintaqada odamlar hayoti va salomatligi uchun yonishga havfli omillari paydo bo'ladigan vaqtga aytiladi.

Bitta evakuasiya chiqish joyiga ega bo'lgan xonalar uchun hamda har bir evakuasiya chiqish joyiga odamlar soni 50 kishidan oshmasa va eng uzoq ish joyidan eng yaqin evakuasiya chiqish joyigacha bo'lgan masofa 25 m dan oshmagai holda evakuasiya vaqti hisobi ishlab chiqilmaydi.

YORITILGANLIK TURLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Amaliyotda ish joylarini yoritishda uch xil ko'rnishdagi yoritilganlikdan foydalaniladi, ya'ni ular tabiiy, sun'iy va aralashgan xolda bo'ladi.

Tabiiy yoritilganlik quyoshdan, hamda yeru-samodan qaytayotgan quyosh nuridan hosil bo'lgan yorug'lik mahsulidir.

Tabiiy yorug'lik issiqlik va yorug'lik doimiylariga ega bo'lib, ular quyoshdan kelayotgan issiqlik uchun 1317 Vt/m⁵ ga, yorug'lik uchun esa 137000 lk ga tengdir.

Tabiiy yoruhlikning afzalliklarn shundaki, uning tarkibida o'ta foydali ultrabinafsha va infraqizil nurlari bor. Bu nurlar muhitni sohlomlashtirishga xizmat qiladi, ya'ni

mikroblarni o'ldirish xususiyatiga egadir. Tabiiy yorug'likdan uch xil moslamalar yordamida, ya'ni tomdan fonar orqali, devordan deraza orqali va aralash holdagi tizimlardan foydalaniladi.

Tabiiy yoritilganlik tizimlariga quyiladigan talablar quyidagilardan iborat: yorug'lik miqdorini binoning vazifasiga qarab tanlanishi, yo'naltirilgan yoki tarqoq hollarda bo'lishligini ta'minlanishi; insolyasiya va yorug'lik me'yorlaridan kam bo'lmasligini ta'minlanishi va boshqalar.

Umuman har qanday yoritilganlikning asosiy vazifasi ish joylariga kuzatilayotgan buyum va zarrachalarni o'lchamlarini hisobga olgan holda, ko'rish a'zolarining toliqmasdan ishlashi uchun eng qulay sharoitini yaratishda xizmat qilishdir.

Shu nuqtai nazardan sun'iy yorug'lik, tabiiysiga nisbatan bir oz qimmatga tushsa-da, ish joylarini yoritish masalasida chegaralanmagan imkoniyatlarga ega.

Sun'iy yorug'lik umumiy, mahalliy va aralash ko'rinishda bo'ladi. Umumiy yorug'lik xonada bir tekis yoritilganlikni ta'minlay oladi. Mahalliy yorug'lik esa faqat asosiy ish joyidagi yoritilganlikni me'yor talabi darajasida ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ko'zga salbiy ta'sir etib, baxtsiz hodislarga sabab bo'lmaslik uchun, odatda mahalliy yoritilganlik umumiyi bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu holdagi yoritilganlik aralash usul deyiladi va xonalardagi yarqiroqlik tafovuti - kontrastni yumshatadi hamda me'yor talabini to'la qondira oladi.

Yoritilganlikni vazifasiga qarab ishchi va nazorat turlaridan tashqari yana favqulotda zarur holatlarda xizmat qiladigan ikki turi ham mavjud. Ularni avariya va evakuasiya yoritilganliklari deyiladi.

Ishchi yoritilganlikni vazifasi ish bajarilayotgan joylarda ishchilarning ish jarayonida mehnat buyumlari va qurollarni ko'zlarida hyech qanday zo'riqishsiz, yengil ko'ra olish imkonini, yaratishdan iboratdir. Buning uchun yopiq muhitdagi ish joyini sanitariya talablari va havfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda yaratilgan SNIIP II. 4-79 dan to'g'ri foydalanish kifoyadir. GOST 12.046-85 ga asosan qurilish maydonlarida umumiy ishchi yoritilganlik 2 lyuksdan kam bo'lmasligi kerak.

Yoritilganlikni nazorat turi, qiymat jihatidan 2 lyuksdan oshmasligi kerak va u asosan tun korong'usida biror muhit yoki chegarani nazorat qilib turish uchun xizmat qiladi;

Yoritilganlikni uchinchi - avariya turini zahira sifatida favqulotda asosiy ishchi yoritilganlik elyoktr tarmog'i ishdan chiqib qolganda ishni to'xtab qolmasligini ta'minlash uchun yoki tarmoqdagi ta'mir ishlarini tezda bajarish maqsadi uchun loyihalashtiriladi. Bunda yoritilganlik miqdori asosiy ishchi yoritilganlikni 10 foizini tashkil qilishi yoki pol yuzasida 1 lyuksdan kam bo'lmasligi shartdir.

Evakuasiya yoritilganligi asosan odamlar serqatnov yo'laklarda va evakuasiya yo'llari buylab o'rnatilish zarur. Uning miqdori bino ichida 0.5 lyuksdan, tashqarida esa 0.2 lyuksdan kam bo'lmasligi kerak.

EKOLOGIYA QISMI

EKOLOGIYA QISMI BO'YICHA
Loyiha qilinayotgan obyekt qurilishining atrof-muhit ta'sirini baholash va ekologik tahlil qilish

Hududning ekologik holati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar:

Loyiha qilinayotgan obyekt joylashadigan rayon talabalar tahsil olishiga xizmat qilishga ixtisoslashtirilgan.

Qurilish maydoniga yaqin korxonalar yo'q, avtobus va yengil avtomobillar bekati, ekologik toza hududi. Bu avtobus va yengil avtomobillardan atrof-muhitga quyidagi ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilar tashlanadi: yoqilg' gazlari va talabalar, hamda fuqarolar tomonidan - plastik idishlar, paketlar, ovqat qoldiqlari.

Hududning tuprogi, yer osti va yer usti suv resurslari:

Qurilish joyning tuprog'i: yerning eng 1,0-1,5 metri o'simlik chirindilaridan iborat unumdor tuproq, ikkinchi pastki qatlami qum tuproq, uchinchi qatlam suglinkadan iborat. Yer osti suvlari 8-9 metr chuqurlikda joylashgan. Beton va qurilish konstruksiyalariga nisbatan agressiv yoki agressiv emas. Yer osti suvi korbanatli yoki boshqa minerallar bor. Yer osti suvlarini ichimlik uchun ishlatish mumkin.

Qurilish maydoniga yaqin joydan yer ustki "Kol" suv havzasi arig'i va vodoprovod quvurlari o'tgan.

Hududning o'simlik va hayvonot dunyosi, aholi salomatligi.

Yerning yuqorigi unumdor tuproq qismi sho'rlanmagan, kuchli eroziya kuzatilmagan. Shu sababli har xil o'simliklarga boy. Ayniqsa qishloq xo'jalik ekinlari ko'katlar, gullar ko'p yetishtiriladi. Ko'p yillik usimliklardan mevali daraxtlar, uzum, madaniy manzarali daraxtlar (archa, kayin, kashtan) .

Qurilish rayonining hayvonot dunyosi ham xilma-xil uy xayvonlaridan tashqari, boshqa kichik yemiruvchi hayvonlar, har xil qushlar: mayna, musicha, chumchuq, karg'a.

Qurilish rayoni aholisi salomatligi sog'liqni saqlash departamenti tomonidan berilgan ma'lumotlarga muvofiq respublikamizda uchraydigan ko'pchilik kasalliklar buyicha foiz hisobida viloyat va respublikadagi ko'rsatkichga nisbatan ancha past.

Hududning mavjud tabiiy ekologik holatini baholash:

Loyiha qilinayotgan obyekt quriladigan joyning fiziko-geografik va iqlim sharoitlari, tuprog'i, yer ostki va yer ustki suv havzalari, o'simlik va hayvonat dunyosi, mavjud ta'sir etuvchi omillar o'rganib chiqildi. Umuman olganda hududning mavjud ekologik holati qoniqarli, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manbalar kuzatilmadi.

Loyixaning yechimini va texnologik yechimning alternativ variantlarini ekologik tahlil qilish:

Diplom loyihasi buyicha Katta O'zbek trakti, 8 a "Bog'i maydon" mahallasida qurilishi rejalashtirilgan.

Obyekt buyicha batafsil ma'lumot: eski binoni kengaytirish, uning o'ng tomonida sport maydoniga xizmat qiladigan yechinish xonalari, santugunlar va inventar xonalari loyihalangan, old fasadidagi bir qavatli binoning ustida ikkinchi qavati qurilishi nazarda tutilgan.

Obyekt poydevori monolit quyma shag'al betonli, devori pishiq g'ishtli, tom yopilma monolit quyma temirbetonli. Yer ishlari hajmi $W_{yer} 86 \text{ m}^3$, montaj ishlari $W_{mon} 120 \text{ m}^3$. Qurilishga ishlatiladigan materiallar: pishiq g'isht, temir armaturalar, sement, shag'al, qizil qum, ekskavator, ko'tarish krani texnikalari. Qurilish ishlab chiqarish texnologiyasi quyma monolit.

Qurilish jarayoni quyidagi asosiy texnologik bosqichlardan tashkil topadi:

Qurilish maydoni o'lchamlarini aniqlash:

- ❖ Poydevorlar uchun zavur qazish;
- ❖ Poydevorlar tagidagi zaminni mustahkamlash va tekislash;
- ❖ Bino devorlarini ko'tarish va tomini yopish;
- ❖ Suvoq va pardoiz ishlarini olib borish;
- ❖ Elektr,suv ta'minoti va tabiiy gaz tarmoqlarini o'tkazish;
- ❖ Ko'chalarni tekislash va

obodonlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishi (loyiha)
«Landshaft dizayni va inter'er» kafedrası

bet

Obyektning umumiy yer maydoni $F_{um} = 120 \text{ m}^2$, shundan, ko'kalamzorlashtirilgan maydon $F_{zel.n} = 60 \text{ m}^2$, qurilish egallagan maydon $F_{str} = 42 \text{ m}^2$, qattiq qoplamali (asfaltlangan, plitka yotqizilgan, betonlangan va h.k.).

Obyekt qurilishida loyiha qilingan yechimga alternativ bo'lgan yechimni ekologik nuqtai nazaridan taqqoslash (masalan bino tomi yopilmasi loyihada prof.nastildan qurilishi ko'zda tutilgan. Alternativ variant – shiferdan. Taqqoslash: prof.nastil – ruhlangan po'lat list zanglamaydi, ranglash talab qilinmaydi, yengil, montaj ishlari ancha tezlashadi. Alternativ variant – shifer transportirovka va montaj vaqtida ko'p sinadi. Eng asosiysi shifer tarkibida asbest moddasi bor. Asbest havflilik toifasi buyicha birinchi toifaga mansub, atrof-muhitga va kishi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni (kimyoviy moddalar, shovqin, tabiiy resurslardan foydalanish, qattiq chiqindilar) baholash:

Obe'kt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi asosiy manbalar:

- foydalaniladigan yerning ma'lum bir qismini qurilishga olish ($F_{um} = 120 \text{ m}^2$);
- qurilish yer maydonining tabiiy holati buzilishi;
- yer qazish va montaj ishlarini bajarishda hamda kerakli materiallarni tashishda transport vositalarining ishlashi natijasida atrof-muhitga ko'p miqdorda zararli yokilg'i qoldiq moddalari va har xil changlar tashlanadi.

Undan tashqari transport vositalari shovqin manbai:

- qurilish jarayonida suv resurslaridan foydalanish, suv olish va oqova chiqazish;
- qurilishda har xil kimyoviy lok-buyoq moddalardan foydalanish natijasida atrof-muhitga ko'p miqdorda kimyoviy zararli moddalar tashlandi;
- qurilish davomida ko'p miqdorda qattiq chiqindilar (g'isht siniqlari, beton qoldiqlari, qurilish buyumlari qoldiqlari) hosil bo'ladi.

a) foydalaniladigan yer maydoni 57 m^2

b) obyekt qurilishiga va obyektidan foydalanishda olinadigan toza suv miqdorlari va oqova suvlar;

v) transport (xom –ashyolarini tashish, yer qazish, montaj ishlarini bajarish jarayonida);

g) payvandlash;

d) qurilish xom – ashyo materiallarini ortish-tushirish va saqlash davomida ajralib chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar.

- qum, shag'al-neorganik chang

- sement – sement changi

- g'isht- neorganik chang

$$Q = \frac{L \cdot B \cdot g}{100} m/йул$$

Bu yerda L- xom ashyo materiallarining chang ko'rinishida yo'qotilishi foiz hisobida L=0,21

V – saqlanayotgan, ortiladigan – tushiriladigan qum, shag'al, sement sarfi t/yil

q-tabiiy yo'qolishi me'yori, % q=0,015

e) qattiq chiqindilar miqdorini aniqlash, ularni to'plash va zararsizlantirish.

Foydalanishga olinadigan suvning miqdorlari bu yerdagi iste'molchilar soni va maktabning sanitar asboblari bilan jihozlanish darajasiga bog'liq va uning me'yoriy miqdorlari 1.1- jadvalda ko'rsatilgan.

Ichimlik suvi qurilish davrida «O'zbekiston» shirkat xo'jaligi hududida suv ta'minoti tarmog'idan keltiriladi. Qurilish tugagach bu uylar ham shu tarmoqqa ulanadi.

Agar tarmoqni ishga tushirish sozlash jarayonda suvning bakteriologik ko'rsatgichlari davlat standartlari talablariga javob bermasa, konsentrasiyasi 100 mg/l bo'lgan xlorli suv bilan 2 soat mobaynida zararsizlantiriladi.

Kanalizasiya mavjudligi va oqova suvni oqizishga qo'yiladigan talablar. Mahalla markazida paydo bo'ladigan oqovalar maishiy xarakterda bo'lib, ularning me'yoriy kunlik miqdori 57,70 m³, yillik miqdori esa 17310 m³ ni tashkil qiladi. Bu oqovalarning tarkibi asosan qum, muallak moddalar va organik birikmalaridan tashkil topadi.

Ularning sifat ko'rsatgichlari doimiy emas. Bu oqovalarda qumlar – 2 g/kishi-sut; muallak moddalar 40 g/ kishi-sut, xlor birikmalari 65 g/ kishi-sut ni tashkil qiladi.

Qurilish olib boriladigan maydonda vaqtinchalik kanalizasiya tizimlari o'rnatiladi.

Qurilish tugagach umumkanalizasiya tizimi quriladi va oqovalar to'liq biologik usulda tozalanadi. U paytgacha bu oqovalar beton o'ralarda to'planadilar va o'ralar to'lishi bilan ularni tuman SES tomonidan ajratilgan maydonga eltib oqiziladi.

Mazkur uy-joy qurilishi va undan foydalanishda atmosfera havosiga zararli moddalar deyarli chiqmaydi.

Binolar poydevori zavurni qazish, injenerlik kommunikasiyalarini montaj qilish, ta'mirlash paytlarida kam miqdorda noorganik chang, payvandlash uskunasi – payvandlash aerosoli, jumladan, MnO_2 va kranli avtomobildan is gazi, azot oksidi, qurum va hokozalar havoga ajralib chiqishi mumkin. Bu moddalarning havoga chiqish miqdori shunchalik kamki, ularning atrof muhitga salbiy ta'siri sezilarli bo'lmaydi. Qurilish jarayonida ajralib chiqadigan changning miqdorini kamaytirish maqsadida tez – tez tuproq namlantirilib turiladi va bu texnik suv hisobidan amalga oshiriladi. Masalan, binolarga tabiiy gaz yoki suvni o'tkazish paytida eng ko'pi bilan 5 kg ANO – 4 markali elektrod ishlatiladi va buning natijasida 33,6 g payvandlash aerosoli, 3,9 g marganes oksidi ajralib chiqadi.

Shu ish bajarilishiga, 67,2 g/yil, 7,8 g/yil marganes oksidi havoga chiqariladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu yerda havoni ifloslantiruvchi moddalarning miqdori sanitar – ekologik talablarni qanoatlantiradi.

- Mahalla markazi faoliyati paytida paydo bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning umumiy yillik me'yoriy miqdori 5,2 t yoki 27 m^3 ni tashkil qiladi.. Bu chiqindilar inert chiqindilar bo'lib, maktabning shimoliy sharqida atrofiy 1,8 m balandlikdagi devor bilan uralgan maxsus hududi betonlashtirilgan maydonda joylashtirilgan hajmi $1,2\text{ m}^3$ bulgan maxsus metal qutilarda to'planadi va shartnoma asosida tuman obodonchilik korxonasiga topshiriladi;

- Qurilish paytida paydo bo'ladigan qattiq chiqindilar miqdori 6.1.-jadvalda keltirilgan.

Qurilish davomida va ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (halokatli) holatlarni va ularning atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish

Obyektning qurilishi va faoliyati davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatli holatlar. Masalan: qum, shag'al yoki sement tashiyotgan avtotransport vositasida nosozlik tufayli qurilish materialining to'kilishi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar.

Obyekt qurilishining atrof - muhitga ta'sir etish xarakteri

Obyekt qurilishining atrof - muhitga chang, yuk tashish mashinalarining yoqilg'i gazining ta'sir etishi, vaqtincha yurish uchun noqulaylik keltiradi.

6.1. jadval. Qurilish davrida obyektida paydo bo'ladigan ishlab chiqarish qattiq chiqindilari					
	Chiqindilar	o'lch.birl.	me'yor. %	maxs.mik,tn.	chiqindi
1	G'isht siniqlari	tonna	0.5	210	1.05
2	Beton va qorishma	tonna	13	120	15.6
3	Yog'och chiqindilar	m ³	1.5	30	0.45
4	Xaltalar	tonna	0.6	24	0.144
5	metall chiqindilari	tonna	0.5	180	0.9
6	plastmassa idishlar	tonna	1	10.96	0.1096
JAMI:					18.2536
Maishiy qattiq chiqindilar					
7	Ishchilar	kishi	0.083	25	2.075
		Kg/m ² -			
8	Suprindi	kun	0.021	1980	41.58
JAMI:					43.655
HAMMASI:					61.9086

Obyekt qurilishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish buyicha tadbirlar va takliflar

Obyekt qurilishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun qurilish obyektining atrofini to'sinlar bilan o'rash.

Mazkur mahalla markazini qurish, jixozlash, ishga tushirish va ekspluatasiya qilish paytida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Yer ishlarini olib borishda eng zamonovay qazish usuli qo'llaniladi;
- Qurilish jarayonida ajralib chiqadigan changning miqdorini kamaytirish maqsadida tez – tez tuproq namlantirilib turiladi;
- Injenerlik kommunikasiya tarmoqlariga xizmat ko'rsatish uchun tibbiy ko'rikdan o'tgan, quduqqa texnik xizmat ko'rsatish va texnika havfsizligi qoidalarni mukammal biladigan va unga amal qiladigan yoshi 18 dan kam bo'lmagan ishchilargagina ruxsat beriladi.
- Shuvoq va badiiy bezash ishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida bajariladi.

Obyekt qurilishidan so'ng hududning ekologik holatini oldindan tahlil qilish

Quriladigan obyekt hududi ***Samarqand shahrida Gagarin ko'chasi (avtomobil katta yo'li)*** bo'yida joylashganligi sababli, transport vositalaridan chiqadigan gaz chiqindilari zararli bo'lib, hamda shovqinli hudud deb hisoblanadi.

- Xususiy loyiha korxonasi faoliyati paytida paydo bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning umumiy yillik me'yoriy miqdori 5,2 t yoki 27 m³ ni tashkil qiladi. Bu chiqindilar inert chiqindilar bo'lib, Xususiy loyiha korxonasining shimoliy sharqida atrofi 1,8 m balandlikdagi devor bilan o'ralgan maxsus hududi betonlashtirilgan maydonda joylashtirilgan, hajmi 1,2 m³ bo'lgan maxsus metal qutilarda to'planadi va shartnoma asosida tuman obodonchilik korxonasiga topshiriladi;
- Qurilish paytida paydo bo'ladigan qattiq chiqindilar miqdori jadvalda keltirilgan.

Qurilish davomida va ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (halokatli) holatlarni va ularning atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish

Obyektning qurilishi va faoliyati davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatli holatlar. Masalan: qum, shag'al yoki sement tashiyotgan avtotransport vositasida nosozlik tufayli qurilish materialining to'kilishi yoki boshqa shunga uxshash holatlar.

Mazkur to'yxonani qurish, jixozlash, ishga tushirish va ekspluatasiya kalish paytida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Yer ishlarini olib borishda eng zamonovay kazish usuli kullaniladi;
- Qurilish jarayonida ajralib chikadigan changning mikdorini kamaytirish maksadida tez – tez tuprok namlantirilib turiladi

Injenerlik kommunikasiya tarmoklariga xizmat kursatish uchun tibiiy kurikdan utgan, kudukga texnik xizmat kursatish va texnika xavfsizligi koidalarni mukammal biladigan va unga amal kiladigan yoshi 18 dan kam bulmagan ishchilargagina ruxsat beriladi.

XULOSA

Landshaftsozlikning o'ziga xos amaliy yo'nalishlaridan biri bo'lgan landshaft estetikasi, hissiy obraz shaklidagi tabiat muhiti go'zalligining insonda aks etishini o'rganadi. Hissiy tuyg'u albatta inson salomatligi va ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonlar qadimdan o'zi yashaydigan, umr kechiradigan maskanini obod qilish va chiroyli qilib bezatishga harakat qilganlar. Shu sababdan bo'lsa kerak landshaft dizayni va loyihalash yo'nalishi paydo bo'lgan. Albatta, bu atama daraxt va butalarni ekish yordamida atrof-muhit fazosini shakllantirish tamoyillari yaratilgandan ancha kechroq taxminan XX asr boshlarida ommaviy tus ola boshladi.

Bizga ma'lumki, qadimgi vaqtlardan inson uchun muhim va yagona oziq-ovqat manbai bu uning shaxsiy bog'i hisoblangan. Yana uzoq vaqtlar ya'ni o'tgan asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrda oilalarning sof tabiiy xo'jaliklarining estetikasiga e'tibor qaratilmas edi. Sababi, bog' va dalalardan meva-cheva, oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasi sifatidagina foydalanilgan bo'lib, landshaft dizayni loyihalariga talab yo'q edi. Endi esa XXI asrga kelib turmush tarzining o'zgarishi, jamiyatda ommaviy industrial rivojlanish inson uchun urbanizasiya keltirib chiqarayotgan oqibatlar(shovqin, turli changlar, zararli gazlar, ultrabinafsha nurlar, asfalt va beton qoplamalar)dan berkinadigan mikroiklim, tabiiy joy zarurligini taqozo etmoqda. Shu sababdan ham landshaft dizayni juda keng ko'lamda rivojlanmoqda.

Landshaftni hissiy xarakter jihatdan o'rganish hududdagi tabiiy kompleks majmualaridan rekreasiya va turizm maqsadlarida foydalanish, o'rganish va baholashga xizmat qiladi. Shuning uchun rekreasion xususiyatlarni o'rganishda ruhiy-estetik omil muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Amaliy jihatdan olib qaralganda inson ruhiy-ijodiy salohiyatini tiklashda estetik darajasi yuqori landshaftlar muhim ahamiyatga ega.

Landshaftning estetik darajasini aniqlash psixologiya, sosiologiya, landshaft-kartografik geografiyadagi mavjud uslublardan o'zaro kompleks foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tabiatning inson ruhiy tuyg'ulari orqali aks etishi, inson va landshaftlarning o'zaro munosabatlari kabi murakkab jarayondir. Landshaft peyzaji(manzarasi), ya'ni tashqi qiyofasi insonda ko'pgina assosiasiya, emosiya va tuyg'ularni keltirib chiqaradi.

Landshaft estetik xususiyatlarining shaklan va mazmunan idrok etilishi insonning madaniyati, ijtimoiy holati va hayotiy tajribasiga ham bog'liqdir. Shu bilan birga bu jarayonda insonga ma'lum psixofizik did, hid, yorug'lik va ranglar gammasi bilan bog'liq hissiy omillar ta'sir etadi.

Har bir shaxsning landshaft go'zalligini his etish darajasini uning tabiat komponentlarini qanday anglashi va tushunishi belgilab beradi. Shuningdek, shaxs xususiyatlari uning qanday jamiyatda, ijtimoiy guruhda shakllanganligi ham tarkibiy va zaruriy jihatlardan hisoblanadi.

Landshaft estetikasi darajasini uchta asosiy ko'rsatkichlar belgilab beradi. Bular peyzajning turli-tumanligi, ekzotikasi (betakrorligi) va landshaftning o'ziga xosligidir. Ushbu xususiyatlar landshaftni rejalashtirish va loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rang-barang va go'zal peyzaj – bu faqatgina hashamat yoki zebu-ziynat emas, balki gullab-yashnayotgan maskanning muhim elementlaridan biridir. Landshaftning foydali xususiyatlarini ifodalashda komfortiligi ham muhim element hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda yirik shaharlar aholisining tartibsizlik va ifloslikka noroziligi bu injiqlik emas, balki jiddiy ekologik estetik noxushlikdan xabar deyishimizga asos bor. Chunki, noestetik va beo'xshov atrof-muhit, qishloq va shaharlardagi parvarish qilinmagan tashlandiq holdagi landshaftlar insonlarda, ayniqsa, yoshlarda yaratuvchanlik emas, aksincha, tajovuzkorlik, buzg'unchilik kuchlarining shakllanishiga imkon beradi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, emosiya bilan insonlardagi ma'lumot taqchilligini to'ldirish mumkin ekan. Bugungi kunda insonlarga tabiat komplekslari to'g'risidagi aniq, jiddiy ilmiy bilimlar yetishmayotgandek nazarimizda. Tabiatga nisbatan emosional-estetik munosabatlar zarur bo'lgan bir paytda, tabiatni qanchalik chuqur o'rgansak, atrof-muhit go'zalligini shunchalik keng va teran anglab yetamiz.

Landshaft go'zalligi esa insonlarga intuisiya orqali ta'sir etib, uning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga, ona zaminimizda hayotning davomiyligiga o'z hissasini qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

ARXITEKTURAVIY REJALASHTIRISH QISMI:

1. **Karimov I.A.** Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent "Sharq", 1997 y.
2. Каримов И.А. «Узбекистон XXI аср поғонасида» Тошкент, Узбекистон, 1997 й.
3. **Karimov I. A.** . O'zbekiston kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida. Toshkent "O'zbekiston", 1998 y
4. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid. Barqaror shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent "O'zbekiston", 1997 y
5. **Ефимов, А.В.** Дизайн архитектурной среды: учеб. для вузов Текст. / А. В. Ефимов [и др.]. — М.: Архитектура-С, 2006.
6. К.В.Бабиевский. "Типология зданий" Ташкент "Укитувчи" 1986.
7. Бархин Б.Г. Методика архитектурного проектирование М.,1982

BADIY QISMI:

1. Постановление КМ РУз от 13.08.2013 «Программа развития ландшафтного дизайна в Республике Узбекистан».
2. Антонова Н. Н. Влияние компетентностного подхода на особенности профессиональной подготовки бакалавра ландшафтника (на примере ВОЛГГАСУ). «Новые идеи нового века». Том 2 – 2015.
3. Дикая И. В. Формирование содержания и процесс подготовки педагогов профессионального обучения в области ландшафтного дизайна. Автореферат, ВАК 13.00.08, к. пед. н.
4. Ubaydullayev X.M., Abduraxmonov Y.I., Setmamatov M.B. "Jamoat binolari tipologiyasi" 2-qism, Tashkent. 2000.
5. Xidoyatov T.A. Tipologiya, T.2008.
6. Ubaydullayev X., Inogamova M., Turarjoy va jamoat binolarini loyixalashning tipologik asoslari, Darslik .,T.2009.
7. **O'zbekiston arxitektura va qurilisi.** Toshkent, № 4, 2009.

HAYOTIY FAOLIYAT HAVFSIZLIGI QISMI:

1. Михайлова Л.А. Безопасность жизнедеятельности под ред. М., 2005
2. Муравья Л.А. Безопасность жизнедеятельности под ред. М., 2003
3. Методические рекомендации по составлению раздела «Охрана окружающей среды» генеральных планов городов (оценка качества водного и воздушного бассейнов).—Л., 1980.
4. Чистякова С. Б., Левченко Г. Н. Охрана и улучшение окружающей среды как составная часть проектных работ в градостроительстве. Оздоровление окружающей среды городов.— М., 1978.

EKOLOGIYA QISMI

1. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi qonuni Toshkent, 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasida Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida nizom. O'zbekiston Respublikasi Tabiat muhofaza qilish davlat qo'mitasi. Toshkent, 2001 yil.
3. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent, 1993 yil.
4. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent, 1996 yil.
5. Qurilish me'yorlari va qoidalari. QM va Q 02.04.01 – 97. Bino va inshootlarning suv ta'minoti va kanalizatsiyasi. Toshkent, 1997 yil.

INTERNET SAYTLARI:

1. www.ziynet.uz.
2. [www. google.ru](http://www.google.ru)
3. [wwwю google.uz](http://www.google.uz)
4. _www.talim.uz.
5. www.образование. Ru
6. www.umail.uz.
7. www.реф.уз. - Рефератлар тўплами